



VATANPARVAR

MILLY ARMIYAMIZ

'BEKİSTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

● Gazeta 1992-yilning 24-iyunida oshlagan

oshlagan

● 2024-yil 10-may, №19 (3081)

May -
Sotira va qadrlash kuni

6-7 MUDOFAA SOHASIDA
INNOVATION
TECHNOLOGIES
FESTIVALI

9 TINCHLIK
QADRI

14 O'ZBEKİSTONLIK
AYOLLARNING
FRONTDAGI JASORATLARI



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

BIZ
HAQIMIZDA

@vatanparvar-bt@umail.uz

t.me/mv_vatanparvar_uz

t.me/mudofaavazirligi

facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya

O'ZBEKISTON XALQIGA BAYRAM TABRIGI

Aziz vatandoshlar, muhtaram faxriylar!

Bugungi shonli bayram – 9-may – Xotira va qadrlash kuni hamda Ikkinci jahon urushida qozonilgan buyuk g'alabaning 79 yilligi munosabati bilan mo'tabar faxriyalarimizni, ko'p millatli butun xalqimizni samimiy muborakbod etib, barchangizga o'zimning chuqur hurmatim va ezgu tilaklarimni bildiraman.

Ushbu qutlug' kunda insoniyat tarixidagi eng dahshatli urushda jasorat ko'rsatib, bashariyatni fashizm balosidan saqlab qolgan qahramon ota-bobolarimiz hamda front ortida mardona mehnat qilib, g'alabani ta'minlashga munosib hissa qo'shgan mard va olivjanob yurtdoshlarimiz xotirasiga yuksak hurmat-ehtirom bajo keltiramiz.

Jang maydonlaridan omon qaytib, mamlakatimiz ravnaqi yo'lida fidokorona xizmat qilgan, bugungi kunda ezgu duolari bilan hayotimizning fayz-u farishtasi bo'lib kelayotgan qadri urush va mehnat faxriyalariga cheksiz tashakkurimizni izhor etamiz.

Ayni vaqtida mustaqillik yillarda Vatanimiz ozodligi, xalqimizning tinchligi va osoyishtaligini himoya qilish hamda o'z xizmat burchini ado etish yo'lida halok bo'lgan jasur harbiyalarimiz xotirasini minnatdorlik bilan esga olamiz.

Qadrli do'stlar!

Bugun barcha shahar va qishloqlarimizda o'tkazilayotgan tadbirdarda bu mudhish urush el-yurtimiz uchun qanday mislsiz talafot va musibatlar olib kelganini yana bir bor yodga olishimiz tabiiydir. O'sha og'ir yillarda frontga safarbar etilgan **1 million 950 mingdan** ziyod o'zbekistonlik jangchidan **538 mingdan** ko'prog'i halok

bo'lgani, **158 mingdan** ortig'i bedarak yo'qolgan, **870 mingdan** oshig'i turli jarohatlar olgani, **60 ming** nafardan ziyodi esa nogiron bo'lib qaytgani bu g'alaba biz uchun naqadar qimmatga tushganini yaqqol ko'rsatib turibdi. Ana shu qirg'inbarot urush xalqimiz qalbida qoldirgan bitmas jarohatni, oradan shuncha vaqt o'tgan bo'lsa-da, hamon unutib bo'lmaydi.

Urush davrida **214 ming** askar va ofitserimiz jangovar orden va medallar bilan taqdirlangani, ularning **301 nafari** Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga, **70 nafari** uchala darajadagi "Slava" ("Shuhrat") ordeniga sazovor bo'lgani biz uchun, hech shubhasiz, buyuk g'alabaning eng yorqin sahifalarini tashkil etadi.

Metin irodali xalqimiz o'sha tahlikali yillarda front ortida sabot va matonat bilan mehnat qildi. Sanoat korxonalarining faoliyati front ehtiyojlari uchun yo'naltirildi. Urush alangasi ichida qolgan hududlardan mamlakatimizga **170 dan** ortiq zavod va fabrika ko'chirib keltirildi va qisqa muddatda ularning faoliyati qayta tiklandi. El-yurtimiz front uchun juda katta miqdorda harbiy texnika, quroq-yarog', dori-darmon, kiyim-kechak, oziq-ovqat va boshqa zarur mahsulotlar yetkazib berdi.

O'zbekiston aholisi 1941-1943-yillarda mudofaa fondiga **475 million** rubldan ortiq mablag'ni, **22 million** rubllik qimmatbaho shaxsiy buyumini ixtiyoriy ravishda topshirgani g'alabani yaqinlashtirishga yana bir muhim hissa bo'lib qo'shildi.

Xalqimiz yuksak odamiylik fazilatini namoyon etib, urush hududlaridan evakuatsiya qilingan **1 million 500 mingga** yaqin insonga boshpana berdi. Ota-onasidan judo bo'lgan

250 ming nafar yetim bolaga mehr-oqibat ko'rsatib, so'nggi burda nonini ham ular bilan baham ko'rdi.

Aziz vatandoshlar!

Azim poytaxtimiz Toshkent shahrida xalqimiz jasoratining timsolisifatida bunyod qilingan muhtasham "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi qisqa vaqt ichida qutlug' qadamjoga aylandi.

Shu kungacha bu yerga **2 million 200 ming** nafardan ziyod ziyoratchi tashrif buyurib, uni katta qiziqish va e'tibor bilan tomosha qilgani ham bu fikrni tasdiqlaydi. Majmua jamoasi tomonidan **ellikka yaqin** kitob-albom va monografiyalar, noyob hujjalarni to'plamlari yaratilib, hozirga qadar noma'lum bo'lgan yuzlab tarixiy faktlar aniqlanib, jamoatchilikka yetkazildi.

"Bobomni izlayman" loyihasi doirasida urushda ishtirok etgan **2 million nafarga** yaqin vatandoshimiz ro'yxati shakllantirildi. Yurtdoshlarimizdan kelib tushgan **300 dan** ziyod murojaat bo'yicha urushda bedarak ketgan **200 nafar** jangchining taqdiriga oid muhim ma'lumotlar to'plandi.

Muhtaram do'stlar!

Bugungi bayram munosabati bilan jonajon O'zbekistonimizda xotira marosimlari, turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar, uch avlod uchrashuvlari o'tkazilmoqda. Tegishli vazirlilik, idora va tashkilotlar, harbiy qismlar rahbarlari ishtirokida urush va mehnat faxriyalar, mustaqillik yillarda xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va huquq-tartibot idoralarini xodimlarining oila a'zolariga tabrik va sovg'alar topshirishga bag'ishlangan marosimlar tantanali vaziyatda o'tkazilmoqda.

Muhtaram urush faxriyalarini xalqimizning doimiy e'tibori va

e'zozida bo'lib kelmoqdalar. Jumladan, yolg'iz yashayotgan urush va mehnat faxriylari, istiqlolimiz himoyasi yo'lida halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning uy-joylari ta'mirlanib, obod qilinmoqda. Ikkinci jahon urushi qatnashchilari va nogironlarining har biriga patronaj xizmati va zarur tibbiy muolajalar ko'rsatilmoqda. Ular o'z xohishlariga ko'ra sanatoriylarda davolanmoqda.

Hech shubhasiz, biz bugungi ozod va erkin hayot uchun aziz jonini ayamasdan kurashgan bunday ulug' insonlar oldida doimo qarzdormiz, ular uchun bundan buyon ham barcha sharoitlarni yaratib beramiz.

Hozirgi g'oyat murakkab va tahlilikli zamonda yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, farzandlarimizni turli zararli ta'sirlardan himoya qilish, beba boyligimiz bo'lgan tinchlik va barqarorlikni, millatlar va dinlararo do'stlik va ahillikni asrashdek o'ta muhim vazifalarni bajarishda qahramon faxriyalarimizning jasorati, shonli an'analari biz uchun hamisha ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi. Biz ulardan ruh va kuch olib, Vatan himoyachilari, tinchlik posbonlari, Yangi O'zbekiston bunyodkorlari bo'lishdek yuksak burchimizni, albatta sharaf bilan ado etamiz.

Aziz va muhtaram yurtdoshlar!

Siz, azizlarni bugungi ulug' ayyom bilan yana bir bor chin qalbimdan tabriklayman. Barchangizga sihat-salomatlik, baxt va omad, xonadonlaringizga fayz-u baraka tilayman.

Yurtimiz tinch, xalqimiz doimo omon bo'lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

SHAVKAT MIRZIYOYEV URUSH FAXRIYLARINI ZIVORAT QILDI

Shu kunlarda yurtimizda 9-may – Xotira va qadrlash kuni keng nishonlanmoqda. Prezident farmoniga muvofiq, Ikkinci jahon urushi qatnashchilari va nogironlariga bir martalik pul mukofoti topshirilmoqda. Ularning holidan xabar olinib, mehr-ehtirom ko'rsatilayotir.

Yuz yosh bilan yuzlashib, hayotning barcha achchiq-chuchugini ko'rgan bu insonlar uchun eng muhimi sog'liq. Shuning uchun ularning salomatligini mustahkamlashga doimiy e'tibor qaratilmoqda. Ayni kunlarda ham bir guruh urush faxriyalarini gospital va sanatoriylarda davolanmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 8-may kuni Mudofaa vazirligining Markaziy harbiy klinik gospitaliga borib, urush qatnashchilari holidan xabar oldi.

Uskan ota Xadjimanov Boyovut tumanidan, Fayzulla ota Nurmatov Oqqa'rg'on tumanidan, Anarboy ota Jalilov Parkent tumanidan, Muhiddin ota Dusanbayev O'rta Chirchiq

tumanidan kelib davolanmoqda. Ular hayotidan rozi ekani, davlatimizning va odamlarning hurmatidan xursandligini aytishdi. Salomatliklari tuman tibbiyot birlashmasining doimiy nazoratida, bepul dori-darmon va har yili sanatoriylarga yo'llanmalar beriladi.

Nuroniyalar Prezidentimizga nevara-chevaralarining o'qish va ishlari, yutuqlari haqida so'zlab berishdi. Ular ta'lim, qurilish, ichki ishlari, qishloq xo'jaligi kabi turli sohalarda samarali mehnat qilib, yurtimiz ravnaqiga hissa qo'shamoqda. Yoshlar zamonaviy bilim olib, chet ellarga o'qishga ketmoqda. Bobolar ularni

tinchlikning qadriga yetish, vatanparvarlik, mehnatsevarlikka da'vat etib keladi.

- Hamma harakatlarimiz xalqimizni rozi qilish uchun, - dedi Shavkat Mirziyoyev. - Islohotlar natijasi eng quyiga, har bir xonadonga kirib borishini istaymiz. Rejalarmiz ham katta. Hamma jipslashsa, birqalikda harakat qilsa, o'ylagan niyatlarimizga tezroq yetishamiz. Sizdek nuroniyalarining duolari bunda bizga madadkor bo'ladi. Sizlarning hayotingiz iroda, jasorat maktabi, gaplaringiz yoshlarga ibrat.

Otaxonlar mehr-e'tibor uchun davlatimiz rahbariga rahmatlar aytди. Dunyoning tinchligi,

yoshlarning porloq kelajagini so'rab duolar qildi.

Gospitalda Ikkinci jahon urushi qatnashchilari munosib parvarish qilinmoqda. Bu muassasa mukammal ta'mirlanib va yangi binolar qurilib, 2022-yili foydalananishga topshirilgan edi. Gospital jami 700 o'ringa mo'ljallangan bo'lib, bu yerda harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari, soha faxriyalar bepul davolanadi. Buning uchun 286 xil diagnostik tekshiruv, 600 dan ortiq amaliyot yo'lga qo'yilgan, 30 ga yaqin ixtisoslashgan bo'lim tashkil etilgan.

O'ZA

VATAN FIDOVILARI XOTIRASI XALQIMIZ QALBIDA MANGU YASHAYDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 9-may – Xotira va qadrlash kuni hamda Ikkinci jahon urushida qozonilgan buyuk g'alabaning 79 yilligiga bag'ishlangan marosimda ishtirok etdi.

Yangi O'zbekistonda "Inson qadri uchun" degan egzu tamoyil barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh g'oyasini tashkil etadi.

Bu jihatlar Ikkinci jahon urushi yillarda Vatan va xalq ozodligi yo'lida mardlik va jasorat namunasini ko'rsatib, jang maydonlarida jonini fido qilgan ota-bobolarimiz, mustaqillik yillarda xalqimizning tinchligi va osoyishtaligini himoya qilish hamda o'z xizmat burchini ado etish yo'lida halok bo'lgan jasur harbiyalarimiz xotirasini abadiylashtirish, urush yillarda katta qiyinchiliklarni sabr-bardosh bilan yengib o'tgan, front ortida fidokorona mehnat qilgan faxriyalarimizga g'amxo'rlik va e'tibor ko'rsatish borasidagi ishlarda ham namoyon bo'lmoqda.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Toshkent shahrida xalqimiz jasoratining yorqin ramzi sifatida bunyod qilingan muhtasham "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi qisqa vaqt ichida qutlug' ziyoratgohga aylandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev "G'alaba bog'i"ga tashrif buyurib, "Matonat madhiyasi" yodgorligi poyiga gulchambar qo'ydi.

Ushbu majmuadagi har bir ekspozitsiya, temsili va bitiklar mudhish urush haqiqatlarini ifoda etadi. "Matonat madhiyasi" yodgorligi urushda o'z bolasidan, yordan judo bo'lgan barcha ayollar sharafiga o'natalgan muazzam obidadir. Bog' bo'yab tarayotgan mungli kuy xalqimizning yo'qotishlari, halok bo'lgan insonlar taqdirlini yodga soladi.

- Bu sanani biz ham xursandchilik, ham iztirob bilan nishonlaymiz. Urushning xalqimiz boshiga solgan og'ir kulfatlari, oradan shuncha yillar o'tsa-da, unutilmaydi. O'sha paytda respublikamiz aholisi 6,5 million kishi bo'lgan bo'lsa, shundan



1 million 950 mingdan ortig'i urushda qatnashgan. Ularning 538 mingdan ziyodi qonli janglarda halok bo'lgani, 158 mingdan ko'prog'i bedarak ketgani biz uchun hech qachon o'nini to'ldirib bo'lmaydigan og'ir yo'qotishdir. So'nggi yillarda mana shunday xotira majmualari va muzeylelar tashkil qilib, bu haqiqatni muhrlab qo'ydik. Bu ishlarimiz xalqimiz, ayniqsa yoshlarimiz tarbiyasida ulkan ahamiyatga ega, - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Bugungi kunda "G'alaba bog'i" yurtdoshlarimiz, yoshlar uchun o'ziga xos vatanparvarlik, tinchliksevarlik maktabi bo'lib xizmat qilmoqda. Bu yerda uch avlod uchrashuvlari, xotira tadbirleri, tarix darslari o'tkazilmoqda. Shu kungacha majmuaga 2 million 200 ming nafardan ziyod kishi tashrif buyurib, Ikkinci jahon urushida ko'p millatli O'zbekiston xalqi ko'rsatgan jasorat va matonat tafsilotlari bilan yaqindan tanishgan.

Majmuja jamoasi tomonidan 50 ga yaqin kitob-albom va monografiya yaratilgan, ilgari noma'lum bo'lgan yuzlab tarixiy dalillar ilmiy muomalaga kiritilgani,

2 million nafarga yaqin urush qatnashchisi ro'yxati shakllantirilgani, aholi murojaatlar bo'yicha bedarak ketgani jangchilar taqdiriga oid ma'lumotlar to'planganini alohida ta'kidlash lozim.

Mamlakatimizda xotira marosimlari, urush va mehnat faxriyalar, mustaqillik yillarda xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va huquq-tartibot idoralari xodimlarining xotirasini ulug'lashga qaratilgan katta ishlar muntazam amalga oshirilmoqda. Jumladan, davlatimiz rahbarining 2024-yil 16-aprelda qabul qilingan "Ikkinci jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida"gi farmoni ana shunday hurmat va e'tiborning yana bir amaliy ifodasidir. Mazkur farmonga muvofiq, urush qatnashchilarini va nogironlariga pul mukofotlari tantanali ravishda topshirildi.

Yolg'iz yashayotgan urush va mehnat faxriyalar, istiqlolimiz himoyasi yo'lida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar otilalarining uyoyjari ta'mirlanib, obod qilinmoqda.

Tadbirda O'zbekiston Qurollari Kuchlari, davlat va jamaot tashkilotlari vakillari,

mahalla faollari va nuroniylar ham ishtirok etib, "Matonat madhiyasi" yodgorligi poyiga gullar qo'yishdi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan "G'alaba bog'i" hududida yana bir majmua – Mustaqillik fidoyilari xiyobonini tashkil etish rejalashtirilgan. Tashrif chog'ida ushu majmua loyihasi taqdimot qilindi.

– Inson xotirasini va qadrini ulug'lash borasidagi ishlarimizning uzviy davomi sifatida "G'alaba bog'i" tarkibida mana shu xiyobonni barpo etsak va unga Mustaqillik fidoyilari xiyoboni, deb nom bersak, o'ylaymanki, el-yurtimiz qalbidagi orzu-armon va ezgu intilishlarni ro'yobga chiqargan bo'lamicha. – dedi davlatimiz rahbari. – Istiqlol yillarda O'zbekiston Respublikasini, xalqimizning tinch va osoyishtu hayotini himoya qilish yo'lida halok bo'lgan mard va jasur o'g'lonlarimizning aziz xotirasiga ehtirom ko'rsatish barchamiz uchun ham farz, ham qarzdir. Vatanga fidoyilik namunasini ko'rsatgan, yurt tinchligi va kelajagi uchun kerak bo'lganda jonini qurban qilgan bu bahodir farzandlarimizning qahramonligi xalqimiz, yosh avlodimiz uchun doimo o'rnak va namuna bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimiz va chet ellik mutaxassislar hamkorligida har tomonlama puxta ishlab chiqilgan betakror loyiha ko'ra, Mustaqillik fidoyilari xiyobonida ona yurtimiz uyuştirilgan terrorchilik xurujlariga qarshi kurashda, shuningdek o'z harbiy burchini ado etish chog'ida halok bo'lgan askar va ofitserlarning qutlug' nomlari va o'chmas xotirasini abadiylashtiriladi.

Davlatimiz rahbari majmua g'oyasi va qurilishi bo'yicha mutasaddilarga tegishli ko'rsatmalar berdi.

O'ZA

Inson qadri uchun

URUSH QAHRAMONLARI – O'TMISHNING TIRIK AFSONALARI

Xotira va qadrlash shubhasiz o'zbek xalqi uchun ota-bobolarimizning so'nmas jasoratini yod etish, mehnatkash xalqimizning og'ir sinovlardagi matonat va sabotini anglash, urush qahramonlari va faxriyalarimiz holdan xabar olish kabi ezgu an'ana sifatida muhlandi.



Dusanbayev Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq tumani O'rtasaroq qishlog'ida tug'ilgan. 1943-yilda urushga otlanib, Rossianing bir qancha shaharlari, Ukraina, Moldova, Polsha, Germaniya diyorlarini safdoshchlari bilan deyarli piyoda bosib o'tadi. Qonli janglarda ishtirok etib, nufuzli orden va medallar bilan taqdirlanadi. Urushdan keyin 5 yil Germaniyada qolib xizmat qiladi. So'ngra uyiga qaytib, Qishloq xo'jaligi institutida o'qidi, ko'p yillar davomida turli mas'ul lavozimlarda faoliyat yuritadi.

Prezident bilan muloqot davomida Muhiddin ota oilasi, farzandlari, ayniqsa nevaralarining yutuqlari, bilinga chanqoqligi haqida to'lib-toshib so'zlab berdi.

– Bir istagim bor edi, – deydi suhbat davomida urush faxriysi, – kenja nevaram o'qishga juda chanqoq, qaniyi, talaba bo'lsa... Vatan xizmatiga bel bog'lasa...

Samimi suhbat bir-biridan qiziq voqealar, achchiq urush xotiralari, bugungi shukronalik damlarimizga ulandi. Davlatimiz rahbari qahramon

faxriyalarimizga o'zining chuqur hurmat va ehtiromini izhor etar ekan, ularga uzoq umr, suronli kunlarda ko'rsatgan ulkan jasorati uchun minnatdorlik bildirdi.

Kunning ikkinchi qismida ham harbiy klinik gospitalga hol so'rab kelganlarning qadamlari uzilmadi. Ayniqsa, Toshkent viloyati hokimi Zoyir Mirzayev boshchiligidagi qator mehmonlarning tashrifi barchaga kutilmagan xursandchiliklarni taqdim etdi. Viloyat hokimi barchani Xotira va qadrlash kuni bilan samimiy qutlar ekan, bugungi osuda kunlarimizda urush faxriyalarimizning xizmati va hissasi katta ekanini aytib o'tdi.

So'ngra mas'ullar tomonidan Prezident topshirig'iga ko'ra, Muhiddin boboning nabirasiga universitet talabasi bo'lish imtiyozini beruvchi sertifikat topshirildi. Eng asosiysi, ana shunday shukuhli bayram arafasida yuz yoshni qarshilayotgan boboning bir ezgu istagi amalga oshdi.

Darvoqe, Muhiddin ota Dusanbayev bugun farzandlari, nevara-yu chevaralarining mehr-u muhabbatidan baha olib yashamoqda.

Bobur ELMURODOV,
"Vatanparvar"

FAXRIYLARGA QUVONCH ULAHILDI

9-may – Xotira va qadrlash kuni bayrami munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirining birinchi o'rinosi – Qurolli Kuchlar Bosh shtabi boshlig'i general-major Shuxrat Xalmuxamedov boshchiligidagi bir guruh harbiy xizmatchilar urush va mehnat faxriylari xonadoniga tashrif buyurdi.



Mualif suratga olgan



Mehmonlarni kutib olgan Nina Sokolova, Fyodor Bolbas hamda Rustem Menaliyev bayram arafasidagi bunday yo'qlovdan quvonchlarini sira yashira olmadilar.

Ayovsiz urushning qora sahnalar, ayrılıq va motamning achchiq iktiroblarini bir-bir esga olgan qahramonlar bugungi ehtiromdan, tinch va osuda hayotdan mammun ekanini bot-bot ta'kidlab o'tishdi.

Darvoqe, Vatanimiz tinchligi, yurtimiz farovonligi yo'lida kurashgan ota-bobolarimizni yod etarkanmiz, ular bosib o'tgan og'ir yo'llar ko'z oldimizda gavdalanadi. Urushning qonli maydonlarida qurban bo'lgan ajdodlarimiz yodi barchamizga birdek faxr va iftixon tuyg'ularini baxsh etadi.

Tashrif davomida faxriylarga bayram munosabati bilan yo'llangan Prezident tabrigi o'qib eshittirildi. So'ngra pul mukofoti, esdalik sovg'alar tantanali ravishda topshirildi.

Shuningdek, mudofaa vaziri o'rinosarlari boshchiligidagi harbiy xizmatchilar, davlat va jamoat tashkiloti vakillari, faol yoshlar ham poytaxtimizdagi urush faxriylarining xonadonlarida bo'lib, ularga Prezident sovg'asi va pul mukofotlarini topshirdilar.

Katta leytenant
D. RO'ZIQULOV,
"Vatanparvar"

QAHRAMONLIK VA QALB JASORATI

Oramizda shunday insonlar borki, urushning achchiq nonini yegan, Vatan tinchligi uchun oromidan kechib jangga otlangan, tunni tun, tunni kun demay mehnat qilgan. Anyi shu insonlarning qahramonliklari sabab biz bugun ozod yurda, obod manzillarda yashayapmiz.



Nasirova Vera Andreyevna ham ana shunday qahramon onalarimizdan. Uning o'smirligi ham dahshatlilikni jahon urushi yillariga to'g'ri keldi. O'sha vaqtidagi ko'plab xotin-qizlarimiz singari er-yigitlardek Vatan himoyasi uchun dushmanga qarshi razvedka harakatlarida ishtirok etib, qahramonligi va qalb jasoratini namoyish etdi.

Xotira va qadrlash kuni Qarshi shahrida istiqomat qilib kelayotgan Vera Andreyevna xonadoni mehnmonlarga to'ldi.

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug qo'shinlar qo'mondoni Vera Nasirovaga Prezidentimizning bayram tabrigini bir

guruh yoshlar, nuroniylar va mehmonlar guvohligida mammuniyat bilan o'qib eshittirdi. Qahramon ayol har bir so'zni qunt va g'urur bilan tingladi. Davlat rahbari tomonidan yuborilgan sovg'alar va 20 million so'm pul mukofotlari munosib ravishda topshirildi.

Harbiy orkestr ijrosidagi kuylar xonadonga haqiqiy bayram shukuhini ulashdi.

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug matbuot xizmati

NURONIYLAR DOIMO E'ZOZDA

Farg'on'a viloyati hokimi, Sharqiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni, harbiy xizmatchilar, viloyat sektor rahbarlari hamda jamoatchilik vakillari Farg'on'a shahrida istiqomat qiluvchi 102 yoshni qarshilagan urush faxriysi Tatyana Usmonova xonadoniga tashrif buyurdi.



Dastlab Yurtboshimizning yo'llagan tabrigi o'qib eshittirildi, so'ng harbiy orkestr musiqalari ostida Prezident sovg'asi, pul mukofotlari hamda qimmatbaho va esdalik sovg'alar topshirildi. Tatyana Usmonova bunday e'tibordan mammun ekanligini bildirib, mehmonlar bilan dildan suhabat qildi.

Shundan so'ng viloyat hokimi boshchiligidagi okrug qo'mondoni va viloyat sektorlari rahbarlari Toshloq tumanida istiqomat qiluvchi Odiljon Zokirov hamda Farg'on'a tumanidagi urush faxriysi Tursunbek Isanbekov xonadonlarida bo'ldilar.

Otaxonlarga ham sovg'alar topshirilib, dasturxon atrofida samimiy suhabat qurildi. Nuroniylar o'zlarini yo'qlab kelgan barchani duo qilib, yurtimizga tinchlik tiladi.

Sharqiy harbiy okrug matbuot xizmati

HURMAT VA EHTIROM KO'RSATILDI

9-may - Xotira va qadrlash kuni bayrami munosabati bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi Amanbay Orinbayev, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi Farhod Ermanov, Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni general-major Farhodjon Shermatov, kuch tuzilmalari rahbarlari hamda davlat va jamoat tashkiloti vakillari Ikkinchiji jahon urushi qatnashchilarining holidan xabar olib, ularni bayram bilan qutladi.

ishlar vazirligida xizmatini davom ettiradi.

Bu yil muborak 100 yoshni qarshi olgan, To'rtko'l tumanida istiqomat qilayotgan Ikkinchiji jahon urushi qatnashchisi Ivan Galenko xonadoni ham shu kunlarda mehmonlar gavjum. Ko'zlarida quvonch nurlari yaltirab turgan Ivan Galenko bugungi dorilamon kunlarga shukronalar keltirib, mehmonlar bilan ancha vaqt suhabat qurdi. Yurtimizdagi tinchlik eng katta boylik ekanini, uni asrab-avaylash lozimligini uqtirdi.

bilan Xorazm viloyatida ham Prezidentimizning urush faxriylariga yo'llagan tabriknomasi, pul mukofoti hamda esdalik sovg'alari viloyat hokimi Jo'rabeck Rahimov, Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni general-major Farhodjon Shermatov, viloyat mudofaa ishlari, ichki ishlar hamda favqulodda vaziyatlar boshqarmalari boshliqlari, tuman va shahar hokimliklari hamda davlat va jamoat tashkiloti vakillari



Nukus shahridagi Qo'ng'iroq ko'chasi 6-uyda istiqomat qilib kelayotgan Ikkinchiji jahon urushi qatnashchisi Qodirboy ota Normanov bu yil 99 bahorini qarshi oldi. Xotira va qadrlash kuni bayramiga Qodirboy otaning uyida har yili o'zgacha tayyorgarlik ko'rildi. Bu safar ham bayram arafasida bu xonadondan mehmonlarning qadami uzilmadi.

Keyingi manzil – Nukus shahridagi 22-kichik dahaga Toshkent shahridan nevarasi oldiga mehmonga kelgan Ikkinchiji jahon urushi

qatnashchisi Mariya Kornishinaning xonadoni bo'ldi. Mariya Ivanovna 1929-yilda tavallud topgan bo'lib, 1944-yilda harakatlanuvchi evakuatsiya qiluvchi gospital tarkibida hamshira bo'lib xizmat qiladi. Suronli urush yillari Ukraina va Polshadagi janglarda yarador bo'lgan jangchilarni evakuatsiya qilish, ularga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, jang maydonlarida olib chiqishda jonbozlik ko'rsatadi. Urush tugaganidan keyin Nukusga qaytib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki

Tashrif davomida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi va Vazirlar Kengashi raisi urush qatnashchilariga Prezidentimizning tabrigini o'qib eshittirdi hamda 20 million so'm miqdoridagi bir martalik pul mukofoti va esdalik sovg'alarini topshirdi. Bir qator tashkilotlar nomidan ham Ikkinchiji jahon urushi qatnashchilariga qimmatbaho sovg'alar ulashildi.

Shuningdek, 9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati

ishtirokida tantanali ravishda topshirildi.

Viloyat rahbari boshchiligidagi mehmonlar Urganch shahrida istiqomat qiluvchi Sobir Qurbonov, qo'shko'pirlik Vafo Iskandarov, Yangiariq tumanidan Amin Matniyazov, hazorasplik Bekchon Matnazarov, gurlanlik Bobojon Madaminov xonadonida bo'lib, ularga ehtirom ko'rsatildi.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati

SAMARQANDLIK KEKSALARING

Samarqand viloyatida ayni damda 5 nafar urush qatnashchisi tinch va farovon yurtimizda qarilik gashtini surib kelmoqda.



MINNATDORLIKLARI

Samarqand viloyati hokimi Erkinjon Turdimov hamda Markaziy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni polkovnik Farrux Ziyabayev Ikkinchiji jahon urushi qatnashchilari Mixail Kolmogorov va Axat Achilovning holidan xabar olib, ularga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bayram tabrigini o'qib eshittirdi va sovg'alarini topshirdi.

Ana shunday tadbirlar Urgut tumanidagi Bo'ron Gadoyev hamda

Kattaqo'rg'on tumanidagi Rahmat Qobilov va Rayim Yusupovning xonadonida ham bo'lib o'tdi. Unda viloyat va tuman hokimliklari, okrug qo'mondonligi hamda sektor rahbarlari boshchiligidagi Prezident sovg'alarini tantanali ravishda taqdim etildi.


Yuksak e'tibor va hurmatdan ko'ngli tog'dek ko'tarilgan faxriylar tinch va osuda hayotimizga ko'z tegmasligini tilab, o'z minnatdorliklarini bildirdi.

Markaziy harbiy okrug matbuot xizmati

Bugun biz foydalanib kelayotgan innovatsion texnologiyalarning aksariyati, avvalo, harbiy maqsadlarda olib borilgan izlanishlarda yaratilgan. Mamlakatimizning aynan texnologik jihatdan mustaqilligini yanada oshirish, iqtidorli yoshlarni ushbu sohaga keng safarbar etish maqsadida "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasida mudofaa sohasida innovations texnologiyalar festivali tashkil qilindi.



O'ZBEKİSTONDA İLK BOR –



Festivalda kuch tuzilmalari vakillari, harbiy xizmatchilar, mamlakatimizda akkreditatsiyadan o'tgan xorijiy davlatlar elchixonalari harbiy attashelari, o'quvchi-yoshlar va ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtiroy etdi.

So'nggi yillarda milliy armiyamizni zamonaviy qurol-aslaha va harbiy texnika bilan ta'minlash, mavjudlarini modernizatsiya qilish hamda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalgalashirilmoxda. Shu maqsadda mudofaa sohasini rivojlantirish bo'yicha Prezidentimizning 2023-yildagi tegishli farmoni bilan Mudofaa vazirligi huzuridagi Mudofaa sanoati agentligi qayta tashkil etildi.

Qayd etish joizki, qisqa davr ichida barcha harbiy zavod va korxonalarimiz tubdan modernizatsiya qilindi, yangilari barpo etildi hamda eng zamonaviy texnologiya va uskunalar

bilan jihozlandi. Harbiy-texnik sohada 40 dan ortiq davlat bilan hamkorlik o'rnatildi, 30 ga yaqin ilg'or xorijiy kompaniya bilan shartnomalar tuzildi, 38 ta mahalliy korxona bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi. Harbiy zavod va korxonalarimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi 155 taga yetkazildi, xizmat ko'rsatish 2,5 barobarga oshirildi.

Bugungi kunda harbiy zavod va korxonalarimiz tomonidan jangovar texnika va yengil zirhlangan avtomobillar, dronlar, optika moslamalari hamda antidronlar, zirhli shlem, kimyoviy va zarbga qarshi himoya vositalari, shuningdek ikki maqsadga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.

Birinchi bor tashkil etilgan ushbu festivalda Qurolli Kuchlarga zarur bo'lgan zamonaviy texnologiyalar, metallurgiya, kimyo sanoati hamda tekstil sohasida ikki maqsadga mo'ljallangan





mudofaa sohasida innovatsion texnologiyalar festivali



20 ga yaqin ishlab chiqaruvchi yirik korxona, 50 ta tashkilot, 30 dan ortiq ishlab chiqaruvchi jismoniy shaxs va ixtirochi o'zlarining mahsulotlari bilan ishtiroy etdi. Taqdimotda tanlab olingan eng yaxshi mahsulot va korxonalar istiqbolda Mudofaa vazirligi huzuridagi Mudofaa sanoati agentligi bilan hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Festival doirasida 7 ta tur: robototexnika, kibersport, dronreysing, 3D modellashtirish, dronlarni loyihalashtirish va dasturlash bo'yicha musobaqalar o'tkaziladi.

Unda texnika, aloqa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o'quv-texnik vositalari, dasturiy ta'minot, aviatsiya, uchuvchisiz uchish tizimlari, robototexnika qurilmalari, trenajyor komplekslar, himoya vositalari, kimyo texnologiyalari va boshqa istiqbolli yo'naliishlar bo'yicha ishlama lara hamda mahsulot

prototiplarini istiqbolda qo'llash uchun raqobatbardosh loyihibar saralandi.

G'oliblar Mudofaa vazirligi, Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi hamda homiy tashkilotlar tomonidan pul mukofoti va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

Mazkur musobaqa va festivalda saralab olingan iqtidorli yoshlari hamda fuqarolarga kelgusida mudofaa sanoati korxona va zavodlarida o'zlarining ishlanmalarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishlari, ishga joylashishlari uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Qisqa qilib aytganda, festival soha vakillarini bir-biriga yaqinlashtirdi, ular o'rtaida mustahkam ko'priq vazifasini o'tadi. Qolaversa, bu mamlakatimiz mudofaa sohasini yanada rivojlantirish yo'lida muhim va ayni damda ishonchli qadam bo'ldi.

**Katta leytenant
Islamjon QO'CHQOROV**

SHUKRONA

Men tengi va mendan kattalarning o'z 1941-yili bor. O'sha mash'um 22-iyun tongidan ko'ngli zada, qalbi iztirobda. Olamga sinchkovroq qarashga, quvnoq kunlari, osuda tunlarida ham hadiklarga hamroh yurishga odatlangan. Mana, qo'limda yillar davomida otam tanasida yashagan granata oskolkalari. Ularni ohista va og'ir dard bilan sanayman: bir, ikki, uch, to'rt... jami o'n bitta!



Yana yettiasi bormish. Dadam urushda ilk marta yaralangan kunlarini shunday xotirlaydi:

– Dneprdan kechib o'tayotganimizda do'stim Abdurahimjon yaralandi. Uning belidan tutib, bir qo'lim bilan, bilmayman, bir soatmi, ikki soat daryoda suzdim. Quroldoshimning lablari pichirlar, men esa bunga ahamiyat bermas edim. Qirg'oqqa yetib olganimda yuragim orqaga tortib ketdi. U o'lgan edi.. Beixtiyor xayol surib, qadam tashlab yuboribman. Shu payt mendan sal narida granata portladi. Keyin nima bo'lganini bilmayman. Yo'lda, askarlar qo'lida o'zimga keldim.

– Omading bor ekan, – deyishdi ular, – bardam bo'l, tuzlib ketasan!

Dadamning haqiqatan ham baxti bor ekan. Urush davomida uch marta dala gospitalida davolangan. Tinchlik kushandalarini quvib solish uchun do'stlari bilan yelkama-yelka turib jangga kirgan. O'sha mashaqqatli kunlar nafasini qishda yanada chucherroq his qildim. Dadam bexos toyib, suyagi darz ketgan oyog'inи gipslash lozim bo'ldi. Bir-ikki oy emas, suyaklar orasida yotgan oskolka sabab qariyb bir yil to'shakka mixlanib qoldi. Shu tufayli dadamga Toshkent viloyati shifoxonasiда davolanishga yo'llanma berishdi. Davolovchi vrach yigit dadamga negadir tanish ko'rindi. Quroldoshi Abdurahimni ko'rgandek, unga talpindi. Biroz hadik va qiziqish bilan so'radi:

– Ne'matjon, o'g'lim, otangizingn ismi Abdurahimjon emasmi?

– Otamni tanirmidengiz? Nahotki ularga shunchalik o'xshasam?!

– Qo'limda jon bergen Abdurahimga juda o'xshaysiz. Xotinim homilador, to'rt oydan keyin o'g'illi bo'lamic, – degandi o'shanda.

Ertasi kuni o'sha jangchingning umr yo'ldoshi, kelini va nabiralari otamning huzuriga kelishdi. Ularning ko'zida yosh, qalbida armon. Yigirma besh yoshida beva qolgan, butun umrini yori yo'liga ko'z tikish bilan o'tkazgan ayolning savollariga javob berish

naqadar og'ir bo'lganini ich-ichimdan sezib turardim...

* * *

Mehnatlash otajonim bayram kunlari ko'ksi to'la orden va medallar bilan shahar aylangani chiqar, "Biz yashash uchun dunyoga keldik, olamni gullatib, azizlarimizga mehr-oqibat ko'rsatish uchun tug'ildik", derdi. Butun vujudi bilan g'oliblik nash'asini tuyar, TINCHLIK ne'matini hayot indallosga qo'yari edi.

Dadam urush haqida gap ketsa onasi Hamro buvimni xomush eslaydi:

– Onamning umri hamisha kimnidir kutish, kimningdir yo'liga ko'z tikish bilan o'tdi, – derdi. Xotira maydonidagi motamsaro ona haykalini quchoqlab yig'laganlari ham shundan. O'shanda bayram bahona otajonimni aziz qadamjoga olib borgandik.

– Haykalni yaratganga rahmat! Xuddi onamning siyemosini yaratibdi-ya! Onajonim mehnat qilaverib, shunaqa qotmalashib ketgandi... – dadam ko'z yoshlarini artar ekan, so'zlarida bir xo'rsinib davom etdi: – Turob akam yarimjon bo'lib qaytdi. Ergash akam domdaraksiz ketdi...

Biz shu kuni xotira kitobini varaqladik va bedarak ketgan akalarining ism-shariflarini o'qib berdik: "Abduazimov Ergash 1921-1941..." Otam yum-yum yig'ladi va ko'p o'tmay, uyimizda akalari uchun ma'raka ochdilar...

– Uzum yeymen desang, tokni uzun kes! Bobongning so'zi bu, – derdilar otam ishkom oralab. – Bobong besh farzandni qahatchilik yillardan shu uzum sabab omon olib chiqqan. Ammo bir kuni eshik taqillab, hovliga charm kurtka kiygan ikki kishi kirib keldi va zavodni kengaytirish uchun hovlingizni buzamiz, deyishdi. Otam bir oy sabr qilinglar, bolalarimning og'zi uzumga tegsin, desalar ham, ular ko'njadi. Otamning buldozer-u traktorlar oldiga tushib, dodlab yig'lab yurganlari ko'z o'ngimda turibdi. O'shanda men besh yoshda, aka-opalarim o'n-o'n besh yosh edi. Otam ertasiga gapirolmay va yurolmay qoldi. Uch kundan so'ng olamdan o'tdi...



* * *

Har kimning qalbida o'z xalqining jazzi qiyofasi yashaydi, deyishadi. Otam ham o'zbek xalqining yurtga muhabbat, yovuzlikka nafrat bilan qalbi to'la farzandlaridan biri sifatida jangga otlandi.

– Yarim tunda "Zudlik bilan razvedkaga odam kerak", dedi shtab boshlig'i askarlarni safga tizib. Jon hammaga shirin, tadbirsiz qo'yilgan bir qadam, ajal degani, – deya xotirlaydi otam. – Boshliqning ko'ziga hech kim tik qarashga botina olmas, birrov tik qarash "men boraman!" degan ma'noni bildirar edi. Bu sukutdan jig'ibiyron bo'lgan boshliq qoshlarini chimirib, u yoqdan bu yoqqa yura boshladи. Barchani xijolatdan qutqarish uchun ikki qadam oлg'a siljib, "Men boraman!" dedim. Boshliq oldimga yurib kelib, yelkamga qo'lini tashladi va "Sen qayerga bormoqchiligidagi bilasanmi?" deb so'radi.

– Bilaman! – dedim qaddimni rostlab.

– Jahannam darvozasiga kirishing kerak, – dedi u ko'zlarimga sinovchan qarab.

– Buniyam bilaman, – dedim, yuragimga biroz hadik oralagan bo'lsa ham.

– Topshiriq shundan iborat, – dedi boshliq qalamda chizilgan bir necha shaklga yuzlanib, – biz turgan qishloq bilan shaharning orasi uch kilometr. Taxminan ikki kilometr yo'l bosinganidan so'ng o'rmon qorovulining uyi keladi. Qorovul "politsay"da ishlaydi – bizga qarashli, ishonchli shaxs. U bilan uchrashganda bosh barmog'ing bilan labingning ikki chetini artasan. "Labingiz shunaqa tirishib turadimi?" deydi. "Yo'q, lekin qichishib turadi", deysan. "Lab qichishsa oshta, til qichishsa boshga", deydi. Mana, tanishib ham olding. Muhim, senga berilgan paketni yo'qtmasdan keltirish. Bilib qo'y, muvaffaqiyatimiz uchun qaltis va murakkab vazifaga ketyapsan!..

Bo'y baravar o'tlar bilan qoplangan quyuq o'rmon orasida ikki kishiga ko'zim tushdi. Biri unvoni kattaroq dashman ofitseri. Ikkinchisi esa oy-kuni yaqinlashib qolgan yoshgina chex juvoni. Yo'lni davom ettirish xavfli, o'tlarning shitiri pand berib qo'yishi mumkin. Nafasni ichga yutib, biroz dam olish va kuzatishga to'g'ri keldi. Kuzatib o'tirib, mudrab qolibman. "A... y", deyan chinqiriqdan vujudim muzlab ketdi. Ofitserning so'nggi mushti juvonning ko'ksiga zarb bilan urildi va u o'rnidan turdi-da, uning do'ppayib turgan qorniga ikki marotaba tepdi. Yo Rab! Kutilmaganda chaqaloq ovozi eshitildi. Ofitser ijirg'anib, chaqaloqni etigi bilan ezg'ilay boshladи.

– Voy, haromil!.. – deb so'kinib, ofitser turgan joyga o'qday otlib borib qolganimni sezmay qoldim. Osmondan

tushdimi bu, degandek u turgan joyida talmovsirab, bir lahma qotib qoldi. So'ng qorniga tushgan tepkidan o'ziga keldi shekilli, epchillik bilan mening ikkinchi marta ko'tarilgan oyog'imni ushlab siltagandi, chalqancha yiqlidim. U menga ayiqday tashlandi. Ikki qo'limni ushlab turib chunonam qo'chqor suzish qilgandi, ko'zimga yulduzlar ko'rini ketdi. Jon shirin, yana kalla urmoqchi bo'lganida, g'o'ddayib turgan burnini shartta tishlab, uzib oldim. Qon tizillab oqa boshladи. U o'rnidan turib, avtomatga yopishdi. Men ham zudlik bilan orqa umurtqasiga mushtim bilan boplab tushirgan edim, esini yo'qotib qo'yib, avtomatni tasmasidan ushlagancha, sarak-sarak qilib turib qoldi. Qurolini qo'lidan yulqib olib, uni asirga oldim. Topshiriqni bajarib qaytayman-u, qopqonga tushgan bo'ri kabi sovuq nigoqli dushmanga qarab o'playman: Nahotki uni ham ona tug'gan, uni ham oq yuvib, oq tarab katta qilgan bo'lsa?!

* * *

Otajonimni sog'indim... Urushda ko'ksiga bejiz taqishmagandir, bu medallarni? Ikki akasining xunini olaman deb o'n yetti yoshga to'lib-to'lmay urushga ketgan otajonim yaralangan. Rus doktorining, endi farzand ko'rmaysan, deganini yosh qalbi qanday singdirgan ekan-a? Urushdan qaytib, kimnidir baxtsiz qilamanmi, – deb yetti yil uylanmay yurganlari-chi?.. Allah hech kimni suprasidan quruq qo'ymaydi! Niyat yaxshi bo'lsa, o'zidan o'zgasiga sig'inmasa, albatta! Isminni bejiz Umida qo'yishmagan. Allohdan umidvorim yana besh qiz, ikki o'g'il ko'rdi. Nabiralar qurshovida shodon yurdi. Qayta-qayta termachlab oldirsakda, ammo yetmish yetti yoshgacha badanida qolgan temir parchalari – o'lim oskolkalarining bir nechtasini baribir o'zlar bilan olib ketdi. Yana o'zlar bilan xomushlikni ham... Garchand e'zozlab hurmat qilishsa-da, ko'z-ko'zlab bayramlarda ko'chalarga yaltiratib taqib chiqadigan orden va medallarni... taqmang, deguvchilar ham topildi...

Eh otam, otajonim-a! Bugungi o'zgarishlar, ochiq muloqot, ozodlik epkinlaridan bahramandlikni ko'rsangiz edi! Urush qatnashchilari Xotira va qadrlash kunida orden va medallarini namoyish qilib, e'zoz-u hurmatlar topib, izzat taxtalarida o'tiribdi! Qaniydi, bu kunlarni ko'rgan bo'lsangiz...

Hamisha yodimizda, ardog'imizdasiz, otajonim! Illoho, joyingiz jannat bog'larida bo'lsin!

**Umida ABDUAZIMOVA,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
madaniyat xodimi**

Ehtirom

Ikkinci jahon urushida qozonilgan g'ala baga 79 yil bo'ldi. Biroq uning og'riqli xotiralari hamon insonlar ko'ksida yashaydi. Urushdan omon qaytgan ulug' insonlarning oramizda borligi quvonarli holdir. Yuz bilan yuzlashib yashayotgan bu otaxonlar bugun davralar to'rida, el ardog'ida. Bu yoshda keksalarning mehrga, parvarishga muhtoj bo'lishi tabiiy hol. Shu sabab ular har doim farzandlar va mahalla-ko'y g'amxo'rliги ostida, davlatimiz e'tiborida.



Ikkinci jahon urushi ishtirokchisi Andaql Xudoybergenov ham olovli janggohlardan omon qaytgan aziz otaxonlardan biri. Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumani Birlik mahallasida istiqomat qilayotgan 98 yoshli otaxonni baxtli inson, desak, arziydi. Negaki ular turmush o'rtog'i Zahira opa bilan qo'sha qarib, farzandlar huzurini ko'rib kelayotgan nuroniylardan. Andaql akaga o'n bir farzand - besh o'g'il-u olti qiz hadya etgan Zahira opa 93 yoshda ham tetik va bardam. Chol-kampir o'ttiz oltita nabira, ellikta evaraga bosh bo'lib, duo qilib o'tirishlarining o'zi katta baxt.

9-may - Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan Andaql aka xonadoni har doimgidan ko'ra mehmonlar bilan gavjum bo'ldi. Tashrif buyurganlar tabarruk keksalar holidan xabar olib,

duolarini olishni istashadi. Biz Xudoybergenovlar xonadonida bo'lganimizda Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligi tasarrufidagi harbiy qism harbiy xizmatchilari hamda shu qishloqda joylashgan 24-umumta'lim maktabi o'quvchilari kirib keldi.

Sovg'a-salomlar bilan tashrif buyurgan harbiy xizmatchilar Andaql bobo xonadonida tez-tez mehmon bo'lishlarini ta'kidlab o'tdi.

Darhaqiqat, urush janggohlaridan omon qaytib, mo'tabar yoshga yetishning o'zi bo'lmaydi. O'n bir o'g'il-qizni voyaga yetkazib, kasb-korli, uy-joyli qilib, elga qo'shish ham ota-onha oldidagi zalvarli burch. Mashaqqatli mehnat evaziga buning uddasidan chiqqan keksalar bugun farzandlari ardog'ida.

Belarus va Ukraina tuprog'ini fashizm zulmidan ozod qilishda ishtirok etgan Andaql boboning urush xotiralari ancha mashaqqatli. Keksaygan vujudda urushning qancha asoratlari yashirin. Yuzga yaqinlashayotgan otaxonning quloqlari ayni fursatda yaxshi eshitmasa-da, tiyrak ko'zları, o'tkir zehni ila fikrlarini bayon qilishga shoshiladi.

Biz Xudoybergenovlar xonadonidan ortga qaytayotganimizda tuman mudofaa ishlari bo'limi vakillari tashrif buyurdi. Andaql ota duoga qo'l ochdi: "Bolalarim, hammalaring sog'-salomat bo'linglar, el-yurt xizmatidan charchamanglar. Allohim dilingizdag'i barcha ezgu niyatlarin ijobatini bersin! Avvalo, tinchlikning qadriga yeting!"

**Zulfiya YUNUSOVA,
"Vatanparvar"**



Mening qahramon bobom, ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Malik Abdurahmonov 1921-yil 15-mayda Jizzax shahrida ziyo'lilar oilasida tug'ilgan. Ota-onasi turkistonlik bo'lgan. Abdurahmonov ja otaning va Salima onanining mard o'g'loni ikkinchi jahon urushi qatnashchisi bo'lgan. 20 yoshida harbiy komissariatga borib, muddatli harbiy xizmatni o'tash uchun yozilgan. Bobomning xotirasi bugun ham barhayot, deb faxr bilan ayta olaman.

Bobomning yoshlida otasi kasallikdan vafot etgach, onasi 8 farzandni yolg'iz o'zi tarbiyalagan. Otasiz ulg'aygan yigitning Vatan oldidagi burchi va fidoyiligi dashmanlarga qarshi kurashida namoyon bo'ladı. 1942-yilda kichik leytenant Malik Abdurahmonov Nikolayev shahridagi 913-jangovar polkda xizmat qildi. Bobom urushda fashist snayperidan otilgan o'qdan chap oyog'i va chap qo'lining bilagidan o'g'ir yaralanadi.

Jasorati qalbimda

1944-yil 22-martda harbiy gospitalda jarrohlik amaliyotini o'tkazgan va chap qo'lidan ayrılgan. Shunday qilib, II guruh nogironi bo'lib qolgan. Bobom gospitalda davolanayotganda unga ozarbayjonlik qiz - harbiy hamshira Maxanum Aliyeva qaraydi. Taqdir taqozosi bilan ular bir-biriga ko'ngil qo'yadi va turmush quradi. Shu tariqa Maxanum Aliyeva, ya'ni menin buyim umrining oxirigacha bobomning yonida qoladi.

Armiyadan so'ng bobom 1944-yilning fevral oyidan boshlab, Oqdaryo tumani komsomol qo'mitasining ikkinchi kotibi, 1945-yilning dekabr oyidan Jomboy tumani komitetining birinchi kotibi,

so'ngra rais o'rinosari bo'lib ishlaydi. Tuman ijroiya qo'mitasi va 1953-yildan 1961-yilning oktabrigacha tuman ijtimoiy ta'minot bo'limida faoliyat yuritadi. Jomboy tumanida ishlagan davrida viloyat ijtimoiy siyosiy hayotida faol ishtirok etadi.

1975-yilda marshal A. Grechko bobomni g'alabaning 30 yilligi bilan tabriklab, faol himoyachilar qatorida bo'lganini aytib, nishon bilan taqdirlaydi. 1985-yilda bobom "Vatan urushi" ordeni bilan taqdirlanadi.

Bobom kichik leytenant Malik Abdurahmonovning urush yillaridagi qahramonliklari xotiramizda abadiy saqlanib qoladi.

**Nilufar SULEYMANOVA,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
Tillar kafedrasи dotsenti**



Kichik serjant xiyor MAMAJOV

USTOZLAR YODI BARHAYOT

Yer yuzida minglab kasb egalari bor, ammo o'z kasbining yetuk mutaxassisini bo'lib, sohada o'r'in topish hammaga ham nasib etavermaydi. Huquqshunoslik sohasining bilimdonlaridan biri, tabiatan mehribon va talabchan ustoz adliya polkovnigi Normad Tojiboyev ana shunday martabaga erishgan inson edi.

Normad Tojiboyev 1956-yil 5-may kuni xizmatchi oilasida tavallud topgan. Oiladagi 7 farzandning o'rtanchasi bo'lgan qahramonimizning otasi Tojiboyev Ahmatqul aka hamda onasi Roziya opa Farg'ona viloyatining Buvayda tumanidagi Alikulov nomidagi jamao xo'jaligi a'zolari bo'lgan.

Do'staridan eshitishimcha, ustoz Normad Tojiboyev yoshlik davridan ilm olishga va mehnat qilishga mehr qo'ygan. Shu bilan bir qatorda, bo'sh vaqtlarida ota-onasiga yordam berib, kitob mutolaasini kanda qilmagan ekan.

U ilk mehnat faoliyatini 1973-1974-yillar Buvayda tumani jamao xo'jaligining a'zosi sifatida boshlab, keyinchalik 1977-1978-yillar Toshkent farmatsevtika zavodida, shuningdek 1979-yili Buvayda tumanining 162-soni qurilish-ta'mirlash boshqarmasida ishchi, 1980-1982-yillarda 11-tonli o'rta

maktabning tarbiyachisi vazifasida davom ettirgan.

1984-yili Toshkent davlat universitetining Huquqshunoslik fakultetiga o'qishga kirgan.

U universitetda ta'lif olib, bir vaqtning o'zida Buvayda tumanining sud ijrochisi lavozimida ham faoliyat yuritgan.

Normad Tojiboyev sud ijrochisi sifatida to'xtab qolmay, tinimsiz o'z ustida ishladi, yetarli bilim va ko'nigmaga ega bo'ldi. 1986-1987-yillar Farg'ona viloyatining Toshloq tumani sudining raisi sifatida mehnat qilib, sudyalik lavozimiga tamal toshini qo'ydi. Keyinchalik 1987-1989-yillar Marg'ilon shahar sudining, 1989-1991-yillar viloyat sudining, 1995-1996-yillar Farg'ona garnizoni harbiy sudining sudyasi, shuningdek 1996-1999-yillar Buxoro garnizoni harbiy sudining va 1999-2004-yillar Chirchiq garnizoni harbiy sudining



raisi, 2007-2008-yillar O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyasi, 2008-2012-yillar O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Harbiy hay'ati raisining o'rinbosari lavozimida faoliyatini davom ettirdi.

Ustoz Normad Tojiboyev oilada mehribon va mas'uliyatli ota sifatida 4 nafar farzandni voyaga yetkazdi. Kenja farzandi Murodil Tojiboyev ota izidan ketib, hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudida suda katta yordamchisi lavozimida xizmat qilmoqda. U kelajakda sharaflvi mas'uliyatli sudyalik lavozimini egallashni o'ziga maqsad qilgan.

Marhum Normad Tojiboyevning shogirdlari va uni tanigan-bilganlar iliq xotiralarini ko'zida yosh bilan yodga oladi.

"Mehnat jarayonida juda talabchan, qattiqqo'l va mas'uliyatli edi. Lekin bizlarni juda hurmat qilardi. Berilgan topshirqlarni vazminlik bilan tushuntirar, bilmaganlarimizni

o'rgatardi. Bo'sh vaqtida sport bilan shug'ullanar, futbolga qiziqardi.

Bizlarni o'zining farzandidek yaxshi ko'rgan, mehribon hamda qalbi toza inson bo'lgan..." deb eslaydi shogirdlaridan biri Shuhrat Do'saliyev.

Normad Tojiboyevning tinimsiz mehnatlari hukumatimiz tomonidan munosib e'tirof etilgan. U 2000-yili O'zbekiston Respublikasining Faxriy yorlig'i hamda 2007-yili "Shuhrat" medali bilan taqdirlangan.

Ajdodlarimizning yuksak jasorati avlodlar uchun har doim o'rnak bo'lib xizmat qiladi. Qonun ustuvorligi va odil sudlov sohasida halol hamda vijdoran mehnat qilgan marhum ustozlarimizning ruhi poklariga doim hurmat bajo keltiramiz.

Ustozlar yodi mangu barhayot!

**Madina XUJAKULOVA,
Toshkent harbiy sudi
sudya yordamchisi**

E'tibor va g'amxo'rlik – insoniy burch

PUL MUKOFOTLARI TOPSHIRILDI

Mudofaa vazirligi Kadrlar bosh boshqarmasi boshlig'i polkovnik Akmal Ortiqov, Mirzo Ulug'bek tumani mudofaa ishlari bo'limi, tuman hokimligi va bir guruh yoshlar tomonidan Toshkent shahrining Mirzo Ulug'bek tumanida istiqomat qilib kelayotgan Ikkinci jahon urushi qatnashchilarini holidan xabar olindi.



Prezidentimizning "Ikkinci jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida"gi farmoniga binoan, Xotira va qadralash kuni munosabati bilan Ikkinci jahon urushi qatnashchilarini va nogironlariga 20 million so'm miqdorida bir martalik pul mukofoti to'lanishi belgilab qo'yilgan edi.

Mazkur farmon ijrosini ta'minlash poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi mahallalarda chinakam bayramga aylanib ketdi. Tumanda istiqomat qiluvchi Akmal Akramov

hamda Irina Pankova xonardonida ularga Prezident tabrigi o'qib eshittirildi va esdalik sovg'alar, shuningdek pul mukofotlari topshirildi.

Bir asrغا tenglashayotgan otaxon mehmonlarga urush xotiralari, urushdan keyingi xizmat faoliyati haqida so'zlab berdi. U o'z so'zi yakunida ko'rsatilayotgan e'tibor uchun hukumatimizga minnatdorlik bildirdi.

**Sherzod EGAMBERDIYEV,
"Vatanparvar"**

SERMAZMUN UMR SOHIBI

Ikkinci jahon urushi o'zbek xalqi xotirasida fojiali yo'qotishlar va boy berilgan umrlar, millionlab go'daklar ko'z yoshiga sabab bo'lgan achchiq kunlar sifatida goldi.



1965-yilda Turkiston harbiy okrugi qoshida tashkil etilgan Qurolli Kuchlar davlat muzeysi shu kunga qadar o'zida noyob ashyolarni saqlash bilan birga, harbiy tarixni ilmiy tadqiq qilish bilan ham shug'ullanadi. 59 yillik faoliyati davomida muzeyda ko'plab noyob eksponatlar va arxiv hujjatlari saqlanib kelinadi.

Arxiv hujjatlari orasida 1918-yilning 3-yanvar sanasida Buxoroda tavallud topgan Ikkinci jahon urushi ishtirokchisi katta serjant Yangiboy Bo'riyevga tegishli bir qancha hujjatlari va ma'lumotlar bor.

Bo'riyev Yangiboyga tegishli harbiy bilet 1962-yil 6-sentabrda Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanidan berilgan. Millati o'zbek. 1944-yili KPSS partiysi a'zoligiga qabul qilingan. 1956-yili Toshkent shahridagi kooperativ savdo maktabini tamomlagan. Mutaxassisligi – iqtisodchi. 1938-yilning 20-noyabrida harbiy xizmatga chaqirtirilgan.

Ikkinci jahon urushi qatnashchisi bo'lgan qahramonimiz 1942-1945-yillar oralig'ida bir necha janglarda qatnashib, 1942-yilning iyul va dekabr oylarida chap oyog'idan og'ir yaralangan, 1944-yil yanvar oyida kontuziya olgan. 1942-yil 6-mayda 464-safdar polkda harbiy qasamyodni qabul qilgan.

Yangiboy Bo'riyev xizmat faoliyati davomida bir qancha orden va medallar bilan taqdirlangan. Qahramonimiz kabi millionlab vatandoshlarimiz o'z jonini xatarga qo'yib, oilasidan kechib bo'lsa-da, Vatan himoyasiga otlangan. Ularning qahramonligi xalq xotirasida barhayot yashaydi.

**Gulnoza USMONOVA,
Qurolli Kuchlar davlat muzeysi
yetakchi ilmiy xodimi**

Qahramonlar yodi

Xotira bor ekan, millat barhayot. Bugungi yorug' va musaffo osmon, osuda hayotimizni ta'minlash yo'lida bukilmas iroda hamda jasorat namunalarini ko'rsatib, yurt tinchligi uchun jonfido qilgan mard va jasur ota-bobolarimizning matonatlari aslo unutilmaydi.

9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari boshqaruv apparatida o'tkazilgan ma'naviy tadbir urush yillarda qahramonlarcha halok bo'lgan vatandoshlarimiz xotirasini yod etishga bag'ishlanib, unda xalqimizning jang maydoni va front ortida ko'rsatgan beqiyos jasorati hamda matonatini tarix sahifalariga muhrlash maqsadida tasvirga olingan "O'zbek qizi" badiiy filmi ijodkorlari ishtirot etdi.

DXX Chegara qo'shinlari, Kinoarbob uyushmasi hamda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi xodimlari bilan hamkorlikda tashkil etilgan mazkur tadbir davomida so'z olganlar olovli janggohlarda o'z sabr-bardoshi va metin irodasini namoyon etgan holda tinchlik uchun kurashgan jasur jangchilarning yorqin xotirasini mangu yashashini, suronli yillarda front ortida fidoyilik namunalarini ko'rsatgan mehnatkash xalqimizning sabr-bardoshi esa har qancha e'tirof va tahsinga sazovor ekanini ta'kidlab o'tdi.

Shuningdek, Ikkinci jahon urushida qatnashib, mardonavor jasorat ko'rsatgan Zebo G'aniyeva, Muqaddam Ashrapova, Ro'za Ibragimova, Sharofat

Jasorat – millat g'ururi va iftixoridir

Ishanto'rayeva va Rahima Alimova kabi minglab o'zbek ayollariga bag'ishlangan "O'zbek qizi" filmi ham yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, uning shonli o'tmishi bilan tanishtirish borasida muhim ahamiyat kasb etishi ayтиб o'tildi.

Kinorejissyorlar Akbar Bekturdiyev va Bahriiddin Aynazarov filmni tasvirga olish jarayonida foydalanilgan manbalar, tarixiy faktlar va urush xronikalarining o'rganilgani, taniqli kinoshunoslar hamda harbiy soha mutaxassislarining maslahatlariga tayanilgani xususida so'z yuritgan bo'lsa, aktyorlar – Aysanem Yusupova, Feruza Saidova va Xusan Alijonov tarixiy-harbiy janrdagi filmda suratga tushish birmuncha mashaqqatli bo'lgani, buning uchun ulardan katta tayyorgarlik talab etilganini gapirib berdi.

Ijodiy jarayonlar haqidagi savol-javoblarga boy tarzda o'tgan suhbat davomida, Chegara qo'shinlari ansambl xonandalari tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar va o'zbek milliy raqslari yig'ilganlarga manzur bo'ldi. Tadbirda, mustaqillik yillarda o'z xizmat burchini ado etish chog'ida halok bo'lgan

qahramon o'g'lolnarning jasorati yod etilib, barcha fidoyilar xotirasiga bir daqiqa sukut saqlangan holda hurmat bajo keltirildi.

Shundan so'ng "O'zbek qizi" filmining namoyishi boshlandi. Ta'kidlash kerakki, urushning vayronkorligi-yu, dahshatini namoyish etib bergan ushu film, barchani birdek to'lqinlantira oldi.

– Juda qattiq ta'sirlandim. O'zbek qizining ko'rsatgan jasorati ishonarli tarzda aks ettirilgan. O'zim ham harbiy xizmatchiman va bunday matonatli ayollarimizning qahramonliklari biz uchun katta ibrat. Albatta, tinchlik, ozodlik va or-nomus uchun to'kilgan qonlar, berilgan jonlar aslo izsiz ketmaydi. Ularning ruhi, shon-sharafga burkangan ezgu ishlari tildan tilga, dildan dilga o'tib, bizga hamisha kuch, shijoat va ilhom bag'ishlayveradi, – deydi mayor Sadoqat Shomurodova.

Shu kuni mehmonlar Chegara qo'shinlari tarixi muzeyida bo'lib, sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, kecha va bugunni qiyosiy taqqoslovchi eksponatlar hamda tarixiy ashylolar bilan yaqindan tanishdi.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari

**Mujda**

BIR TISHLAM NON

Ikki tabaqali deraza oynasidan xira nur xonaga tushadi. Kirgan zahotingiz xonada nima borligini payqamaysiz.

Sal turib, ko'zlarining ravshanlashadi, birin-ketin xona ichidagi narsalarni ko'ra boshlaysiz. Birinchi bo'lib, ko'zingiz xona to'ridagi choponga, uning yonida esa bir tishlami uzligan nonning ilinganiga tushadi...

Ha, bu o'sha non... Urush tugagan, tinch kunlarda yashayotgan bo'lsak-da, bu xotira hamon tirik. O'z nasibadorini kutayotgandek. Yoshligimizdan deyarli har bir uy to'rida ilingan bunday nonlarning nima sababdani bunchalik asralishini eshitib ulg'aydik.

Bu shunchaki non emas – janggoh tomon bositgan qadamlar zarbi, yaqinlar sog'inchi, mardlarning qoni to'kilgan zamining ovozsiz ohi, uyg'a qaytish orzusi, g'alaba uchun kurash timsoli...

Bir tishlam non – vujudida yaralganidan umidi-yu kelajagini, umrini u bilan bog'lagan onaizorning yo'llarga mushtoq ko'zlar nuri, "qoraxat" kelganda ham yo'qotilmagan umid, bir kechada tim qora sochlarni egallagan oqlar, umrining so'ngigacha farzandi diydoriga mushtoq qalb...

Bu suyanchig'ini kutgan yor nolalari, er kishining yumushlarini bajarganidan qadoq tortgan qo'llar, loy

qorib, uy solgan oyoqlar jarohati, paxtazorda og'ir yuk tashigan "qontalash" yelkalar, yorining sog'inchini bir enlik xatdan topgan ko'ngil oromi, umid va alamlar to'qnashuv...

Devorda osig'liq non otasidan oq fotiha ololmay, o'zga uyga uzalgan qizning iztirob qurshovidagi yo'llaridir. O'g'ilning yelkalarda ko'tarib ulg'aymagan balaligidir.

Bu non o'g'loning, yoring, otang "Endi qaytmaydi!" degan tamg'a, "Xotirasi abadiy o'chmaydi!" degan mash'aladir!

Bugun tinchlik haqida o'yлarkanmiz, shukurlar aytarkanmiz, qalbimizda mana shu onalarning ohlari, yorlarning fig'onlari, bolalarning ko'z yoshlari oldida boshimiz egikdir. Ulardan bizga yetgan tinchlikni asrashimiz, kelajak avlod uchun qo'riqlashimiz chin insoniy burchimizdir...

Habiba G'AYBULLAYEVA
Zarafshon shahri



Bu voqeal qirq birinchi yilning avgustida boshlanib, ikki yil o'tgach, yakuniga yetgandi.

...Urushning suronli damlari edi. Otam urushda, bobom Spiridon ota bilan amal-taqal kun kechirardik. Bobom keksayib qolgani uchunmi, ro'zg'or tashvishlari asosan mening zimmamda edi.

"KO'PPAK"

(hikoya)

O'sha kuni u qo'limga tutqazgan o'n litrlik shisha idishdagi aroqni pullab, bir pud jo'xori olib qaytish maqsadida bozorga yo'l oldim. Ovim baroridan keldi. Uzoq xaridor kutmadim. Xaridor molimni bir pud jo'xoriga almashgani yetmagandek, kamiga cho'ntagimga bitta qizil o'ttiztalik pulni ham solib qo'ydi. Bozordan qaytishda oshxonaga kirib, uch porsiya kotlet va limonadga buyurtma berdim. Bufetchi avval pulim borligiga ishonch hosil qilgach, buyurtmani stol ustiga keltirib qo'ydi. Shu payt oshxonaga uzun junlari loyga belangan, qop-qora, ozg'in ko'ppak kirib keldi. U avval xonani bir aylanib chiqdi, keyin menga qarab, dumini likillata boshladi. Men idishdagi kotletlardan birini uning oldiga tashladim. Ko'ppak kotletni bir yamlab yutdi va hech narsa bo'limgandek yana menga termildi. Shu payt bufetchi kelib, ko'ppakni hayday boshladi:

- Bor yo'qol, itdan tarqagan! Ko'ppak shu zahoti tashqariga yo'naldi. Bu paytda men ham ovqatimni yeb bo'lqandim. Tashqariga chiqqanimda boyagi ko'ppak hamon ostonada mo'litrab turardi. Yo'limda davom etarkanman, ortimda boyagi

ko'ppakning jon holatda angillagani eshitildi. Bir payt qarasam, ko'ppak o'qdek oldinga uchib bordi-da, o'zini ko'priq ostiga - suvgaga urdi. Darrov ortimga o'girilib qaradim. Bufetchi qo'lida bug' burqsiyotgan bo'sh qozonni changallab turardi.

- Bu nima qilganingiz? - dedim bo'g'ilib.

- Hechqisi yo'q, bechora sovqotib turgan ekan, qizib olsin dedim.

- Eshshak! - baqirdim ovozim boricha.

Bufetchi avvaliga qotib qoldi. Keyin men tarafga halloslab chopishga tushdi. Shu zahoti yerda yotgan kattakon toshni qo'limga oldim. Avzoyimni ko'rib, bufetchining ham shashti so'ndimi, indamay ortiga burildi. Ko'ppak ko'priq tagida dirdir titragancha ingrab yotardi. Uning tumshug'i, old oyoqlari qaynoq suvda kuyib qolgandi. Ko'zlaridan esa duvullab yosh oqar, chamasi, nima sababdan u bu taxlit ayovsiz jazolanganini tushunolmay, hayron edi. Uning ahvolini ko'rib, men ham ko'z yoshlarimni tutib tura olmadim. Ko'ylagimni yechib, o'rtasidan ikkiga bo'ldim-da, ko'ppakning bir ko'zini, bir oyog'ini avaylab bog'ladim. Keyin uni o'zim bilan uyga olib keldim.

- Bu nima? - so'radi bobom savatdag'i jonivorni ko'rib.
- Ko'ppak, - javob qaytardim.
- Shuyam ko'ppak bo'ptimi? - burun jiyirdi bobom. - Qayoqdan topding?
- Bufetchi ustidan qaynoq suv to'kvordi.

- O'g'rining jazosi shu-da.
- Uning qorni och, - dedim ko'ppakning boshini silab.
- Anavilarini yechib tashla. Darhol bog'ichlarni yechdim.
- Boplabdi-ku, - dedi bobom itning kuygan joylarini ko'zdan kechirarkan.
- Bu issiqda yaralar qiyin bitadi. Borib moy olib kel, yaralariga suramiz. Oyog'ini-ku o'zi tuzatadi. Biroq ko'zi...

Ertasi kunidan bizning uyimizda ham it hura boshladi. Biz uni "Jek", "Yo'lbars", "Bo'ynoq", "Murka" singari nomlar bilan chaqirib ko'rdik. Birortasiga parvo ham qilmadi. Shunda uni oddiygina qilib, "Ko'ppak" deb atay qoldik.

Bir oy o'tib, oyog'i tuzaldi. Tumshug'ining kuygan qismidan ham yangi tuklar o'sib chiqdi. Shu tariqa u quvnoq, chiroylitga aylandi. Qishloqda bunaqasi hech kimda yo'q.

U ayollar va bolalarga tegmas, qishloqdag'i hamma parrandalar orasidan o'zimizning tovuqni ajrata olar, hatto unga qo'riqchilik ham qilar, erkaklarni esa uyg'a yaqinlashtirmsadi. Ba'zan qo'shnilarimiz: "Endi sizlarnikiga chiqolmaydigan bo'lib qoldik", deb yo'zg'irardi. Bobom esa bunga javoban kulib qo'ya qolardi.

U mening eng yaqin hamrohim bo'lib qoldi. Qayerga borsam, ortimdan ergashardi.

"Ko'ppak" bobom bilan ham yaxshi kelishib qoldi. Ba'zan bobom uni yoniga chaqirancha boshidan o'tganlarni hikoya qila boshlaydi. "Ko'ppak" ham boshini quyi solib, diqqat bilan bobomni eshitadi. Xuddi hamma gapni tushunayotgandek har zamonda bosh chayqab qo'yadi.

"Ko'ppak" tunda hovlida yotadi. Hamma itlar qatori kechasi bilan hurib chiqadi. Xo'roz qichqirig'i, mushukning miyovlashiga, shoqolning uvullahiga javoban akillashni burchi deb biladi. Qishloqda eridan, o'g'lidan yoki aka-ukasidan "qoraxat" olib, uvvos solayotgan ayollarning faryodiga ham befarq qaramaydi, tumshug'ini ko'tarib, shikoyatomuz uv tortib qo'yadi.

1943-yilning 22-avgusti, yarim tunda butun qishloq itlarining biri olib-biri qo'yib akillashidan uyg'onib ketdim. Ayni it zoti kuyukkan bunaqa paytda kim ham itlarning g'avg'osiga qulqoq solardi. Hamma ko'rpaga boshini burkab, yana uyquga ketdi.

Ertalab Aslan Tavberidze buloq boshida allaqanday itning g'ajib tashlangan boshini ko'ribdi. Itlarning iliqish mavsumida bunaqa holatlar tez-tez uchraydi. Bu holga uncha e'tibor qaratishmadi. Uni darhol ko'mib tashladik.

Choshgohda qishloqqa bir notanish kimsa itini izlab kelib qoldi. Uni Aslanning yoniga jo'natishdi. Men ham ortidan bordim.

- Kirill Mamaladze, Xevidanman, - dedi notanish kimsa. - Itim yo'qolib qoldi. Bugun qanaqadir itni ko'mgan ekansiz.

- Ha, - dedi Aslan, - manavi yigit bilan birga ko'mdik. Nima edi?

- Menga o'sha joyni ko'rsata olasizmi?

Uni haligi it ko'milgan joyga olib bordik. Kirill itni bir ko'rishda tanidi.

- Ha, u mening itim, - dedi u qazib olingan boshga tikilib. - Kecha u o'g'limni tishlab qochgan ekan. Pasterov stansiyasiga olib borganimda, itning miyasini tekshirib ko'rish uchun kallasini olib keleng, degandi. Xudo ko'rsatmasin, agar it quturgan bo'lsa, bolaga qirqta ukol qilisharkan. Qirqta! Bechora bolamning holi nima kechadi?

Mamaladze xo'rsingancha qopidan bolta chiqardi. Men esa shart burilib, uyga chopdim. Bobom gaplarimni eshitib, peshonasini tirishti.

- Yaxshi ish bo'lmbadi, - dedi oyoqlari ostida cho'zilib yotgan "Ko'ppak" ka qarab.

Kechqurun qo'shnimiz Badria chiqib, bobomdan miltig'ini so'radi.

- Nima qilasan? - so'radi bobom.

- Itimni otib tashlayman.

- U senga nima gunoh qildi?

- Eshitmadingizmi? Kecha kimningdir ko'ppagi bizning itlarimiz bilan g'ajishibdi. Ha, aytgancha, boyagi odamning gapini sen ham eshitding-ku! - u shunday deya menga yuzlandi. - Bolasini qopib olgan ekan.

- Lekin u itni quturgan demadi-ku? - so'radim undan.

- Tentak, sog' it o'z xo'jayinining bolasini qopadimi? - yelka qisdi Badria. Men indamadim.

- Unaqada senga miltig'imni berolmayman, - bosh chayqadi bobom.

- Unda itni nima bilan o'ldiraman?

- Qoziq bilan.

- Nimalar deyapsiz? Men bunchalik vahshiyasman.

- Unda bilganingni qil!

Badria ketgach, bobom menga "Ko'ppak" ni o'tinxonaga qamashni buyurdi. Zum o'tmay, qishloq bo'ylab avval o'q ovozlari, keyin itlarning jon halpidagi chiyillashi, erkaklarning shovqini eshitildi. Qo'shnimiz Badrianing uyida ham o'q varangladi, keyin Alistrax, Makarianing uyida ham shunaqa qiyomat qo'pdi. Itlarning faryodidan qulog'im bitayozdi. Bobom ham quloqlarini berkitgancha bir nuqtaga tikilib o'tirardi.

Bu aql bovar qilmas it qirg'ini bir soatcha davom etdi. Bir soat qishloqda shovqin-suron timjadi. Bir soat o'tinxonaga qamalgan "Ko'ppak" ham eshikni timdalab, ulidi. Keyin hammasi jimb qoldi. Borliqqa o'lik sukunat cho'kdi.

Tong otdi. Xo'rozlar qichqirdi. Sigirlar mo'radi. Echkilar ma'radi. Tovuqlar "qaqog'" ladi. Konsxouli uzra quyosh charaqladi. Lekin qishloqda nimadir yetishmasdi.

U allaqanday qadrond, odatiy, ko'z ilg'amas jihatidan mahrum bo'lqandi. Qishloqning tor so'qmog'i bo'ylab yelkasiga boltasini osiltirib kelayotgan Aslan Tavberidze ko'rindi. Uning izidan qolmaydigan shal pangulqoq "Tuzik" ko'rinsasdi. Ha, qishloqning qon-qoniga singib ketgan, endilikda yetishmayotgan bu narsa it edi. Oddiy it.

1943-yil 24-avgust tongini qishlog'imiz itlarsiz qarshi oldi.

...Bizning "Ko'ppak" ham kun bo'yi darchadan tashqariga chiqmadi. Hech narsa yemadi, humrabi. U bobomning oyoqlari ostida horg'in cho'zilib yotardi. Ko'tarilib-tushib turgan qornini aytmasa, uni o'lgan deb o'ylash ham mumkin edi. Kechga yaqin yana Badria paydo bo'ldi.

– Salom, Spiridon ota! – so'rashgan bo'ldi u. – Odamlar sizdan xafa. Kecha uyingizda o'q otilmagan mish.

– Nega uyimda o'q otilarkan? – o'zini bilmaganga oldi bobom.

– Spiridon ota, bitta itni deb odamlarning ko'nglini qoldirmang! Itingizni o'ldiring! Bizning itlarimiz ham siznikidan yaxshiroq edi, voz kechdik-ku! Odamlardan ajralib qolmoqchimisiz?

– Yo'q, Badria, o'lsam, tobutimning ustida hatto it ham uvullamaydigan ahvolda qolmay, deyapman-da!

– Menga qarang, – dedi daf'atan Badria tutaqib, – agar itingiz quturib, bolalarimdan birortasini tishlaydigan bo'lsa, uyingizni yer bilan yakson qilib ketaman!

Garchi olaqorong'i bo'lsa-da, bobomning rangi qanchalik oqarib ketganini ilg'adim.

– Menga qara, mishiqi! – dedi u ovozi titrab. – Tilingni tiy! Bo'lmasa, quruqshagan suyaklarimni uyingning gulxanida isitishga majbur bo'laman!

Badria indamay uyiga ketdi. U nima deb o'ylaganini bilmadim-u, uning o'rnida men bo'lganimda, kechasi bilan mijja qoqmagan bo'lardim. Chunki bobom shu paytgacha aytganini qilmasdan qolmagan.

...Yarim kechasi hovlimizning narigi burchagidan ikkita o'q ovozi va itning akillashi eshitildi. O'rnimdan sapchib turdim-u, miltiqni olib, o'q otilgan tarafga oshiqdim. Kimdir o'zini butalar panasiga oldi. Keyin qochib borayotgan odamning qadam tovushlari quloqqa chalindi.

"Ko'ppak" chetan devor tagida yotgancha zaifgina g'ingshirdi. Uni asta ko'tarib, uyg'a kirdim. Bobom moychiroqni yoqqan, echki po'stagi ustida o'tirardi. U "Ko'ppak"ning yarasini spirt bilan artib, tamaki qo'yib bog'ladi.

– Uncha qo'rquinchli emas, – dedi bobom, – o'q suyakka tegmabdi, – keyin itga o'girildi. – Kim seni bu ahvolga soldi, jonivor?

It boshini quyi soldi.

– Biladi, – dedi bobom, – lekin gapirolmaydi bechora.

Keyin u itni balkonga olib chiqishimni buyurdi. Bizning uyimiz tepalikda joylashgandi. Bobom ayni paytda balkondan xuddi qishloqni ilk bor ko'rayotgandek ser solardi. U anchayt jim turgach, menga o'girildi.

– Bolam, chindan ham, bitta itni deb qishloqdoshlarni ranjitish yaramaydi. Miltiqni ol, "Ko'ppak"ni ham qishloqdan tashqariga olib chiq! Faqat o'q ovozini eshitmasam bo'ldi.

Titrab ketdim. Ammo shu paytgacha bobomning gapini ikki qilmagandim. Miltiqni yelkamga ildim. "Ko'ppak"ning zanjiridan yetakladim. "Ko'ppak" najot kutgandek bobomga qarab mo'ltiradi. Bobom esa yig'lab yubormaslik uchun yuzini ters o'girdi.

Biz qishloqni kesib o'tib, katta yo'ldan daryo qirg'o'iga olib tushuvchi so'qmoqqa qayrildik. "Ko'ppak" itoatkorlik bilan boshini eggancha ortimdan lo'killab kelardi.

Daryo bo'yiga yetganimizda "Ko'ppak"ning bo'ynidagi arqonni yechib, kattakon tosh ustiga o'tirdim. Yuzimdan sovuq ter quyilar, yuragim gurs-gurs urardi. Biroz tinchlangach, yelkamdag'i miltiqni qo'lga oldim. Shu paytda "Ko'ppak"ning ma'sum, mute nigohlari bilan to'qnashdim. Beixiyor ko'zlarimni olib qochdim va miltiqdan gilzalarni chiqarib, suvg'a uloqtirdim.

Yelkamdan tog' ag'darildi go'yo. Shu payt "Ko'ppak" yugurib oldimga

keldi va qo'llarimni yaladi. Keyin esa o'zini suvg'a tashlab, shataloq otgancha atrofga suv sachrata boshladи. So'ngra qirg'oqqa chiqib, qum ustida yastandi. Uning oyog'idagi yarasi qontalash bo'lib turar, ko'zlar yoshaq, biroq u kulardi. Ha, ishonavering, "Ko'ppak" quvonchdan xandon otayotgandi.

– Menga qara, "Ko'ppak", – dedim unga qarab, – endi bor! Umuman ovozingni ham chiqarmaslikka harakat qil! Odamlarni qumva, ularga tashlanma, qopma, umuman, ulardan nari yur! Bo'lmasa, ular seni o'ldiradi. Qishloqqa qayta kelma! Bizzdan rozi bo'l, "Ko'ppak"jon!

U meni tushundimi-yo'qmi, bilmadim. Lekin men ortimga burilganimda, u hamon joyida turardi.

– Xo'sh? – so'radi bobom. Men indamay miltiqni olib, bobomga uzatdim. Bobom miltiq magazinini ochib ko'rди. Keyin menga qarab, ma'yus kulimsiradi:

– O'g'lim, bunaqa fe'ling bilan hayotda ko'p qiyinalasan!..

...Bir hafta o'tib, shoqol Ekvitime Siradzening echkisini bo'g'izlab ketdi. Keyin kimdir Aslan Tavberidzening omboridan o'n pud donni o'maribdi. Yana bir kuni Berdzenishvilining sigiri hovlimizga kirib, yangi o'tqazilgan ko'chatlarni sindirib ketdi. Uning ketidan Nina xolaning sigiri bilan Sipito amakining novvosi izsiz yo'qoldi...

Odamlar sarosimaga tushib goldi. Hamma bir-biridan norozi. Hatto bir-birini bo'ralab so'kkalar ham bo'ldi.

15-oktabr kuni rosa kuchli jala quydi. Sel daryo qirg'o'g'idagi tegirmonlarni oqizib ketdi. Faqat Goraberejoulidagi bitta tegirmon omon qoldi. Ertasi kuni bobom meni o'sha yoqqa jo'xori tortib kelgani jo'natdi. Kechga yaqin tegirmondan chiqqan bir qop jo'xori unini orqalab ketmoqchi bo'lganimda bo'sag'ada Kirill Mamaladze paydo bo'ldi. U tegirmonchi bilan salomlashdi. Menga esa uncha e'tibor ham qilmadi.

– O'g'lingiz tuzalib qoldimi? – deb so'radi Mamaladzedan.

– O'g'limga nima qilibdi? – ajablandi u.

– It tishlab oldi, degandingiz-ku?

– Haa! Tuzalib ketdi. It quturmagan ekan. Doktorlar tekshirib ko'rib, aytadi.

– Quturmagan ekan?! – turgan yerimda qotib qoldim. – Siz... ular... Siz odam emas ekansiz! – shunday deya uning javobini ham kutmay, ortimga qayrildim.

Ertasiga bu haqda bobomga aytsammikan, deb kun bo'yi o'yladim. Keyin bu fikrimdan qaytdim. Nima foydasি bor? Qopni yerga tashladim.

18-oktabrda bobom yotog'idan chiqmadi.

20-oktabrda mendan uyda qolishni iltimos qildi.

25-oktabrda bobomning qo'l-oyoqlari shishdi.

27-oktabrda u meni chaqirib, qo'limga omborning kalitini tutqazdi.

28-oktabrda meni oldiga o'tqazib, vasiyat qildi.

– Bolam, vaqt-soatim yetgan ko'rinadi. Sen qo'rhma! Men hamisha sening yoningda bo'laman. Faqat uyimizni tashlab ketmasang, chirog'imizni yoqib o'tirsang bo'lgani. Hali urush tugaydi. Otang qaytib keladi. Aniq bilaman, u tirik! Ertaga omonatimni topshiraman. Faqat sen qo'rhma! Hamma ishni qo'shnilar qiladi. Faqat uyimizda ayol kishi yo'qligi chatoq-da! Ortimda dod solib yig'laydiganim yo'q.

Tongga yaqin bobomning joni uzildi. Mening mehribonim!

U meni tashlab ketdi. Oyoqyalang ko'chaga yugurdim. Sovuq etni junjiktirardi. To'g'ri qarshimizdag'i hovlining eshigini qoqdim.

– Margarita!

Avvaliga hech kim javob bermadi. Ikki-uch chaqirganidan so'ng ichkaridan ayol kishining uyqusiragan ovozi keldi. Biroz o'tib, qo'shnimizning katta qizi Margarita ko'zini uqalab chiqli.

– Tinchlikmi? – so'radi menga qarab.

– Haligi... bobom o'lib qoldi. Uyimizda dod solib yig'laydigan ayol kishi yo'q. Iltimos...

Margarita indamay ortimdan ergashdi...

Bobom 1943-yil 4-noyabr kuni dafn qilindi. Marosimda atrof-javonibdan odamlar yopirilib keldi. Har bir qishloqdan bittadan ayol go'yanda kelib, rosa chuvvos ko'tardi. Qo'shi xotinlar ham chapak chalib, dod solib yig'ladi:

– Voy, parixatgina, nabirangizni kimgarga tashlab ketdingiz, otaginiamm!

Balkon ham, hovli ham, hatto ko'chamiz ham odamlarga to'lib-toshgandi. Shunda kutilmagan hodisa yuz berdi. Daf'atan tumonat odam ikkiga ajralib, o'rtada kichik yo'lak hosil bo'ldi. Undan junlari loyga belangan "Ko'ppak" og'ir qadamlar

bilan bobomning tobuti turgan xonaga yo'1 oldi... U old oyoqlarini tobut ustiga qo'ydi-da, shu taxlit qotib qoldi. Tobutda yuzida nim tabassum bilan yotgan bobomning yuzlariga tikilib, xuddi yosh bolaning yig'isiga o'xshash ohangda g'ingshidi.

Olomon orasidan kimdir: "Xudoga shukur-ey!" deb yubordi. Men ham o'zimni tutolmay yig'ladim.

Shu payt yana bir mo'jiza yuz berdi. Xonaga Badria kirib keldi. U itni ko'rib, rangi oqardi. Biroq tezda o'zini qo'liga olib, men tarafga yurdi. Hamdardlik bildirish uchun yelkamga qo'lini bosgan paytda it unga qarab irilladi. Keyin ko'zlar yonib, akillashga tushdi. Badria o'zini mening orqamga oldi.


– Anavingga qarasang-chi?! Men... men hol so'ragani chiqdim xolos.

Men "Ko'ppak"ni tinchlantirarkanman, bobomning gaplarini esladim: "Biladi. Faqat gapirolmaydi bechora..."

– Keting bu yerdan! – dedim Badriaga qarab.

...O'sha oqshom "Ko'ppak"ning tanish ovozi qishlog'imiz bo'yab yoyildi.

**Rus tilidan
Rustam JABBOROV tarjimasi.**



Ikkinci jahon urushi yillari 800 mingdan ortiq ayol erkaklar bilan teng, yelkama-yelka turib fashistlarga qarshi kurashgan. Ular har xil qo'shin turlarida xizmat qilgan.

Latofatli himoyachilarning aksariyati harbiy tibbiyot muassasalarida enaga, sanitarka, saninstruktur, hamshira va vrach bo'lib ishlagan. Aloqa bo'linmalarining taxminan 80 foiz, yo'l qo'shinlarining esa qariyb yarmini ayollar tashkil etgan.



Bular ichida "Ночные ведьмы" nomi bilan mashhurlikka erishgan ayollar aviatsiya polki ham bor. Ushbu polkda o'zbekistonlik ayollar - Y. Saninova va M. Sirtlonova ham bo'lgan. Ularning ikkalasi ham Sovet Ittifoqi Qahramoni unvonini oлган. Bundan tashqari, frontlarda mernan, razvedkachi, zenitchi va boshqa qo'shin turlarida ham ayollar xizmat qilgan bo'lib, ularning 91 nafari Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni bilan taqdirlangan.

Ayollar frontga ketgan erkaklar o'rnni egalladi. Tarix fanlari nomzodi Z. Ibragimovning 1953-yili dissertatsiyasiga yozgan referatiga asoslansak, 1940-yili O'zbekistonning ishlab chiqarish sanoatida ayollar soni 34 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1943-yilda 63,5 foizga yetganini bilishimiz mumkin.

Ayollar nafaqat fabrika va zavodlarda, shuningdek ishlash sharoitlari qiyin bo'lgan kon va shaxtalarda ham faoliyat yuritgan.

Ko'plab o'zbekistonlik ayollar o'zlarining pul jamg'armalari va tillo buyumlarini mudofaa fondiga topshirgan, frontda jang olib borayotgan jangchilarga issiq kiyim-kechaklar yuborgan, gospitallarda ixtiyoriy navbatchiliklar olib borgan, frontga ketganlarning oilasi va evakuatsiya qilingan aholiga g'amxo'rlik ko'rsatgan, yetim qolgan bolalarni o'z tarbiyasiga oлган, donor sifatida qon topshirgan. Misol uchun, 3 728 nafar o'zbekistonlik ayol urush yillari 38 725 kilogramm qon topshirgan. Urush yillari respublikamizga 200 mingdan ortiq bola evakuatsiya qilingan bo'lib, ulardan 4,5 mingdan oshig'i o'zbek oilalari qaramog'iga berilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, Ikkinci jahon urushi yillari armiya safida

O'ZBEKISTONLIK AYOLLARNING FRONTDAGI JASORATLARI

6 mingga yaqin o'zbekistonlik xotin-qiz bo'lgan.

YELENA STEMPKOVSKAYA

Yelena Stempkovskaya 1921-yilda tug'ilgan. Uning otasi Konstantin Maksimovich fuqarolik urushi yillari partizanlar otryadida janglar olib borgan, urush tugagach, militsiya bo'linmalarida xizmat qilgan. 1932-yili Konstantinning oilasi O'rta Osiyoning "Bayavut-1" sovxoziiga ko'chib keladi va Yelenaning yoshligi ushbu sovxoza o'tadi. Otasi zaxira qismi omborini boshqargan, onasi Anna Vikentyevna esa bolalar yaslisida enaga bo'lib ishlagan.

1940-yili Yelena Nizomiy nomidagi Toshkent pedagogika institutining Tarix fakultetiga o'qishga kiradi. "A'lo" baholarga o'qishi bilan birgalikda jamoat ishlarida ham faol qatnashgan. U Stempkovskaya armiya tarkibiga chaqiriladi va radistlar kursiga yuboriladi. Kurslarni tugatgandan so'ng o'qchilar polkida xizmatini davom ettirgan. 1942-yili Don daryosi qirg'og'ida bo'lgan og'ir janglarda Yelena xizmat qilgan polk surshovga tushadi. Og'ir jang sharoitida ham bir daqiqaga bo'lsa-da shtab bilan aloqa uzilmadi, chunki radist Stempkovskaya tinimsiz ishlardi.

1942-yilning oktabr oyida Yelenaning harbiy qismi Don daryosining qirg'og'idiagi Zimovenki qo'rg'oni atrofida, Stalingrad ostonasining yaqinida mudofaaga o'tadi. Besh sutkadan beri shiddatlari janglar ketmoqda. Batalyon quturgan fashistlarning shiddatlari hujumini qaytarayotgan bir vaqtda gitlerchilarning bir guruhi batalyon mudofaasini yorib o'tib, qo'mondonlik

punktiga yopiriladi. Fashistlar aloqa tarmog'ida navbatchilik qilayotgan Yelenani asirga oladi. O'z qasamyodiga sodiq qolgan Yelena Stempkovskaya vafotidan so'ng Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga munosib topiladi.

ROZA IBRAGIMOVA

Roza Ibragimova Xorazm viloyatida tug'ilgan. 1941-yili Toshkent tibbiyot texnikumiga o'qishga kirgan. 1943-yili boshqa qizlar singari Roza ham radistlar maktabini tamomladi va 1944-yili tank qo'shinlarda xizmatini boshlaydi. Birinchisi jangdayoq dushman snaryadi tankni ishg'ol etadi. Yarador komandirini yonayotgan tankdan olib chiqqani va uning hayotini qutqarishda ko'rsatgan mardligi uchun Roza "За отвагу" medali bilan taqdirlanadi. 1945-yilning mart oyida Roza Berlin uchun bo'lgan janglarda ham faol qatnashadi.

MUNIRA GIYASOVA

Munira Giyasova aloqachi ayollar kursida o'qib, 4-Ukraina frontidagi harbiy qismiga xizmatga boradi. U janglar davomida Ukraina, Polsha, Chexoslovakija va Germaniyani bosib o'tdi. G'alaba kunini Polshanning Belske shahrida qarshi oldi. Munira Giyasova "Ташкентская правда" gazetasining muxbirini bilan suhbatda urush yillaridagi xotiralari bilan bo'lishib, jang maydonlarida sodir bo'lgan ko'plab voqealarni so'zlab bergen. Munira Giyasova frontdan qaytib, 28 yil davomida Toshkentdagi konserva zavodida kimyo-tehnolog lavozimida ishlagan.

**Podpolkovnik Nozim KAMALOV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
o'qituvchisi**

dehqonchilik va mexanizatorlik kasbini o'rgatishda davom etdi. Biroq urushda oлган og'ir jarohati keksayganda o'z asoratini yuzaga chiqardi. Shunday kunlarda farzandlari otaga tirkag bo'ldi.

U tomonda urush o'q yog'dirayotgan chog' bu yoqlarda yo'qchilik odamlar sillasini quritmoqda edi. Onalar og'zida chaynab turgan donni ham, nonni ham bolasiga ilinardi. Mayiz (uzum) pishig'iga yetsak bo'ldi, deyilar palla edi. Bordi-yu, mayizga yetib olinsa, ochlik oz bo'lsa-da, chekinganday tuyulardi.

Eshonqul otamiz va O'g'iloy onamiz olti nafar farzand - to'rt o'g'il, ikki qizni ulg'aytirdi, halol luqma berdi, elga qo'shdi. Farzandlari turli sohalarda mehnat qilib, el-u yurtga foydasi tegdi.

Eshonqul otamiz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 6-maydag'i farmoniga asosan, "Jasorat" medali bilan taqdirlandi. Ikkinci jahon urushining 25, 30, 40, 50 va 65 yilligiga bag'ishlab chiqarilgan ko'krak nishonlari, Belarus Respublikasi Prezidentining farmoniga asosan berilgan "Belarus ozod etilganligining 70 yilligi" medali Eshonqul otaming urushda chekkan ming bir azoblaridan so'zlaguvchi tarixdir asli...



Urush...


Bu haqda bobomiz aytgan, bobomiz aytmagan bo'lsa, momomiz aytgan. Ular aytmagan bo'lsa, o'zi kim aytgan - tarix aytgan.

Istiqlol!

Bu haqda bobomiz ham o'ylagan, momomiz ham. O'zi kim o'ylamagan?!

**Akmal JUMAMURODOV,
jurnalist**

BOBOMIZ AYTGAN GAPLAR...



Urush...

Bu haqda bobomiz yoki momomiz aytgan.

Ular aytmagan bo'lsa, tarix aytgan.

1925-yil. Xos qishloqlik Oysha onamizni to'lg'oq tutib, Qo'shmat ota o'g'il ko'rди. Go'dakka Eshonqul deb ism qo'ydilar.

1927-yil. Davlatjon onamizni to'lg'oq tutib, Adhamboy ota qizlik bo'ldi. Buvakni O'g'iloy dedilar.

Eshonqul yolg'iz o'g'il bo'ldi. O'g'iloy durday qiz bo'ldi. Ikkovingning taqdiri o'xshab ketdi. Eshonqul o'n ikki yoshida otadan ayrildi. Shundog'am nimjon bolakayning jussasini g'am bosdi. O'g'iloy yetti yasharligida onadan yetim qoldi. To'qqizida otasini Sirdaryo tomonlarga olib ketdilar. Ota xat yozaman deb edi, xabar bo'lmasdi. Olti oy deganda o'sha tomonidan allaqanday poyezdda olib ketayotganlarining daragi yetdi...

Stansiya. Qizgina shapka kiyganlar orasida ko'rinnay qoldi. Otasini izladi. Topdi. Quchoqladi. Yig'ladi.

"Chiqilsin!" deyildi. Poyezd bir silkinib joyidan qo'zg'aldi. O'g'iloy vagon quvladi. O'pkasi to'lib-to'lib yugurdi. Ota oynadan telpagini silkitdi. "Qayt, qizim!" dedi.

Telpak uzoqlab bordi. Ko'rinnay ketdi. Bolalar mакtab borgan bo'ldilar.

Avvaliga qishloqda faoliyat yuritib turgan bitta-yu bitta maktab ham urushning daragi yetib, yopildi.

Eshonqul o'n sakkizga to'ldi. Bir ko'ngilin sevdirish yoshida bo'ldi. Ammo davr taloto'lari qalb bilan hisoblashmas, bir parcha qog'oz bor ediki, shugina ham ota qaddini bukishga yetib ortardi. O'shanday kunlarning birida Eshonqul Qo'shmatov nomiga bir parchagina chaqiruv qog'ozni keldi. Shundan so'ng Oysha onamizning na yeganida tayin bo'ldi, na ichganida halovati bo'ldi. Shum taqdirdan og'rindi.

Eshonqul Qo'shmatovni urushga ketayotganlar safida ko'rgan kimki bor, "Nechaga kirding?" derdi. Odamlar uning miltiq ushholmasday ko'ringan qo'llari, yelkalari, qaddi-bastiga boshdan oyoq razm solarkan: "Kim yubordi seni?" deydi achinib bosh chayqardi. Bu xil gaplar Eshonqulga kor qilmas, qaytanga kuch berar, jasoratga yo'l ochardi.

Eshonqul otaming yigitlik yillari naq urush alangasiga to'g'ri keldi. Suyagi qotib-qotmasdan traktorchilikka havasi uyg'ongan o'spirin kasb o'rganay

deganda, orzulari keyinga qoldi. Urushga otlandi. Belarus frontida qon kechib, etik yechmay, Yevropaning bir qator mamlakatlari va shahar-qishloqlarini ozod qilishda qatnashdi. 1944-yilda daydi o'q tegib, o'ng qo'lidan yaralandi-yu, jarohati hadeganda bitmadi. Qishlog'iga qaytdi.

Uzoqdan Eshonqulni ko'rgan xotin-xalaj dala boshida qiy-chuv ko'tardi. Biri olib-biri qo'yib Oysha onamizga chopdi. Ona avvaliga ishonmadi. Ishonganida esa ko'chaga oyoqyalang yugurib chiqdi. "Eshonqulim!" deya to'rt tomon alangladi. Onamiz shunday entikdi. Onamiz shunday intiqdi. Eshonqulini ko'rganida bir zum dong qotdi. So'ng... o'g'lining bo'yniga o'zini otdi. Quchoqlab oldi. Yuzlaridan, ko'zlaridan o'pdi. Yig'lab-yig'lab o'pdi. To'yib-to'yib quchdi. Yarani ko'rgach, ho'ngrab yubordi.

Havas ne bo'lmasin, havas ekan-da - onamiz o'g'liga qiz axtardi. So'rab-surishtirib, O'g'iloyni topdi. Onamizning bu eshikka to'liqib borganlari, sarg'ayib kutganlari bo'ldi. "O'g'lim senga, sen o'g'limga loyiq", deganlari bo'ldi. Axiyri qizginanining mayli yigitga tushib, yigirma ikkisida ikkovning umri tutashdi.

O'g'iloy onamiz yoriga yupanch bo'ldi. Yarasini yuvdi. Bog'ladı. Yuvdi-bog'ladı... Mehr bilan parvarish etdi. Sog'lig'ini o'ziga qaytardi. Eshonqul otamiz ham urushdan avvalgi orzusiga yetishish uchun astoydil harakat qildi. Tez orada mexanizatorlik kasbini egalladi. Ko'p yillar xo'jalikning turli rusumdag'i texnikalarini boshqardi. Paxta qator orasiga ishlov berish, qishloq xo'jalig'i mahsulotlarini tashish, ekskavator boshqarish kabi yumushlarni mohirlik bilan bajarib keldi. Nafaqaga chiqqach ham, uyda o'tirmadi. Farzandlariga

1922-yilning kuzida Germaniyaga tahsil olish uchun Buxoro Xalq Respublikasi tomonidan 55 talaba yuborildi. Aka-uka Muhammadjon va Rahmatjon Avazjonovlar ham ular bilan birga edi. O'shanda Muhammadjon 17, ukasi Rahmatjon 14 yoshda edi.

Uning so'nggi ish joyi Farg'ona tekstil kombinatida bosh injener va ishlab chiqarish bo'limi rahbarligi vazifalari bo'lgan. Endigina 32 yoshni qarshilagan Muhammadjon Avazjonovning g'ayrati kundan kun jo'sh urayotgan bir paytda uning atrofida qora bulut paydo bo'ldi.

GO'ZAL ELZA VA AYRILIQ

Rahmatjon Avazjonov o'qishda zaraulik go'zal

shahardagi "Erkin mehnat" to'qimachilik fabrikasi va charm ishlab chiqaruvchilar ittifoqi laboratoriyasida ishladi. Shuningdek, Germaniyadagi ayoli va farzandini olib kelish yoki ularning yoniga borishga ruxsat olish uchun sovet mas'ullariga bot-bot murojaat qiladi. Ammo dunyoning qariyb uchdan birini egallagan sho'rolar mamlakatida ikki sevishgan qalb uchun joy topilmaydi. 1935-yilga kelib sevgan yori va farzandini qayta ko'rishdan umidini uzgan Rahmatjon Toshkentga qaytadi va Toshkent tekstil kombinatida sex boshlig'i, muhandis bo'lib ish boshladi.

Rahmatjon Avazjonov 1937-yil 4-sentabr kuni O'zSSR Jinoyat kodeksining 60- (*aksilinqilobiy tashviqot*), 67- (*aksilinqilobiy tashkilotga a'zolik*) moddalari bilan ayblanib, qamoqqa olinadi. U yashayotgan Toshkent tekstil kombinatinining yotoqxonasida tintuv o'tkazilib, pasporti, Germaniyada oлган diplomi, turli xatlar, suratlari va boshqa shaxsiy buyumlari, uydan topilgan 30 so'm pul ham dalolatnomasi asosida olib ketiladi. Uning turmush o'rtog'i O'rta Osiyo davlat universiteti (SAGU) Kimyo fakultetining 5-kurs talabasi bo'lgan Yelizavetta Savelyevna Avazjonova va endigina bir yoshga to'lgan qizi Svetlana hech qanday tushuntirishlarsiz, uysiz ko'chada qoldiriladi.

Tabiatan hassos qalb egasi bo'lgan Muhammadjon adabiyotni juda sevar, bo'sh vaqtlarida o'zi Germaniyadan keltirgan fotoapparati orqali turli tabiat manzaralarini, tarixiy binolarni, do'stlar bazmlari, odamlarni suratga olib yurar edi. 1937-yil 9-sentabrda o'tkazilgan ilk so'roqda tergovchi asosiy e'tiborni ana shu suratlarga qaratdi. Hech bir aniq asoslar ko'rsatilmagan holda Muhammadjon Avazjonov Germaniya josusi, deb O'zSSR Jinoyat kodeksining 57-moddasi I qismi (*Vatanga xiyonat, harbiy va davlat sirlarini sotish, shpionaj*), 58- (*quroll qo'zg'olonga harakat*), 64- (*Sovet davlatiga qarshi terakt*), 67- (*aksilinqilobiy tashkilotga a'zolik*) moddalari bilan aybdor deb topilgan. Afsuski, 30 yoshli Rahmatjon ham o'sha kuniyoq akasi bilan bir kunda otib yuborilgan.

Muhammadjon sovet turmasida yana qariyb bir yil muttasil qyinoq va azoblar ostida qismat hukmini kutdi. So'roqlarda

aksilinqilobiy josuslik tashkiloti umuman mavjud bo'lmanini qayta-qayta ta'kidladi. Biroq bir yil avval tayyorlab qo'yilgan ayblov bayonnomasiga ko'ra, ayblov 1938-yil oktabrida SSSR prokurori general Andrey Vishinskiy tomonidan tasdiqlandi va 33 yoshli Muhammadjon o'sha kuniyoq otildi.

RAHMATJONGA QANDAY AYBLOV QO'YILGANI?

Rahmatjon Avazjonovga nisbatan chiqarilgan qarorda uning besh yil Germaniyada o'qigani, "Turkiston" aksilinqilobiy tashkiloti a'zosi, Germaniyaga ishlovchi jesus, 1927-yilda SSSRga josuslik maqsadida qaytgan, deb O'zSSR Jinoyat kodeksining 60- (*aksilinqilobiy tashviqot*), 62- (*aksilsovet targ'ibot*) moddalari bilan ayblov qo'yiladi. Uning harakatlari esa josuslik deya talqin qilindi. Rahmatjonga "Krokodil" hajviy jurnalida chiqqan karikaturani ko'rib kulganini tan olganini aytishdi. Ya'ni bu bilan sovetlarning zarbdor staxanovchilik harakatining ishchilarga hech qanday foydasi yo'q, degan gapiga iqror bo'lishini talab etishgan.

Ushbu voqealardan so'ng u o'z akasi bilan bir kunda sud qilindi. Unda Rahmatjon O'zSSR JKning 57-1- (*Vatanga xiyonat, harbiy va davlat sirlarini sotish, shpionaj*), 58- (*quroll qo'zg'olonga harakat*), 64- (*Sovet davlatiga qarshi terakt*), 67- (*aksilinqilobiy tashkilotga a'zolik*) moddalari bilan aybdor deb topilgan. Afsuski, 30 yoshli Rahmatjon ham o'sha kuniyoq akasi bilan bir kunda otib yuborilgan.

QATAG'ONNING FOSH ETILISHI...

Keyinchalik stalincha qatag'onlar oshkor bo'la boshladi. Zulm qurbanli bo'lgan aka-uka Muhammadjon va Rahmatjon Avazjonovlarning ishlari ham qayta ko'rib chiqildi. Allaqaqachon vaqt o'tib bo'lgan bo'lsa-da, Rahmatjon Avazjonov 1957-yilda SSSR Oliy sudining harbiy kollegiyasi tomonidan oqlandi.

**Bahrom IRZAYEV,
tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori**

BIR KUNDA OTILGAN



AKA-UKALAR QISMATI

GERMANIYAGA YO'L

Aka-uka Avazjonovlar avval Buxoro shahrida eski maktab va madrasa ta'limini oldi. U yerda arab, fors tillarini mukammal o'zlashtiradilar. Shuningdek, rus tili va adabiyoti, Yevropa musiqa san'ati sirlarini bilardilar. Taraqqiyat parvarlik g'oyalari ta'sirida ulg'aygan bu yoshlar keyinroq "Yosh buxoroliklar" harakatida ham faollashadi.

Ular Germaniyaga kelgach, Kyoslin shahridagi pedagogika maktabida boshqa buxorolik yoshlar qatorida o'qiydi. Muhim sohalar bo'yicha puxta bilim egallagan yigitlar SSSRga qaytadi. 1928-yilning sentabrida Samarqandga yetib kelgan Muhammadjon Avazjonov va Isomiddin Alovuddinovni O'zbekiston hukumati rahbari Fayzulla Xo'jayev kutib oladi. Rahbar ularning kelajak vazifalari haqida to'xtalib, ma'lum miqdorda pul ham bergach, yoshlar Buxoroga yo'l oladi.

Muhammadjon O'zbekistonda tekstil kombinatlari qurilishi va ishga tushirilishida katta rol o'ynadi. Sohada kuchli mutaxassislar yetishtirish maqsadida kombinatlarni qoshida bilim yurtlari tashkil etdi.

nemis qizi Elza Pragerni uchratib, uni sevib qolgandi. Aftidan ularning rasman oila qurish taraddudiga tushganini sezib qolgan sovet xufiyalari Rahmatjonni bosim yoki aldov yo'li bilan Moskvaga olib keldilar. Uning 1928-yil yozining so'ngida sakkiz kun davomida Moskvadagi qamoqda saqlangani, aka-uka Muhammadjonning uyiga bormasdan, avval hukumat rahbari Fayzulla Xo'jayevning qabuliga kirishi ham yuqoridagi fikrni asoslashi mumkin.

Rahmatjon shundan keyin Moskvada qolgan. U

Mangu matonat

Mudofaa vazirligi faxriylar ishlari bo'yicha Shimoli-g'arbiy harbiy okrug kengashi tashabbusi bilan Nukus shahrida Qurolli

Kuchlar faxriylari va yoshlari ishtirokida 9-may – Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlab, "Inson aziz, xotira muqaddas!" shiori ostida o'tkazilgan tadbirdorda Ikkinchiji jahon urushidagi g'alabaga ota-bobolarimizning qo'shgan hissasi, front ortidagi mashaqqatli mehnatlari haqida so'z bordi. Yosh avlodning harbiy kasbga qiziqishini oshirish, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharaflari va muqaddas burch ekanini chuqr singdirish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratildi.



Qoraqalpog'iston Respublikasining qadimiy tarixi, madaniyati, Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida aziz jonini fido qilgan qahramonlar bilan faxrani shuyuq usini yuksaltirish, milliy armiyamiz qudrati va salohiyatiga bo'lgan ishonchni yanada kuchaytirish, Ikkinchiji jahon urushi yillarda fashizmga qarshi kurashda mardlarcha jang qilgan yurtdoshlarimizning nomini abadiylashtirish maqsadida Nukus shahrida barpo etilgan "Vatanparvarlar bog'i"da faxriylar va yoshlari ishtirokida o'tkazilgan sayohat ham sermazmun kechdi.

Dastlab faxriylar va yoshlari "Motamsaro ona" haykali poyiga gulchambarlar qo'ydi. Shundan

so'ng "Vatanparvarlar bog'i"da joylashgan harbiy texnikalar bilan tanishuv o'tkazilib, ularning jangovar qudrati, yaratilish tarixi va quronanishdagi maqsadi atroflicha tushuntirib berildi. Nukus garnizoni harbiy orkestri tomonidan ijro etilgan Vatanni madh etuvchi kuy va qo'shiqlar uchrashuvga o'zgacha fayz bag'ishladi.

Tadbirlar doirasida Nukus garnizoni ma'naviyat va ma'rifat markazida o'quvchi-yoshlari va Qurolli Kuchlar faxriylari shaxmat bo'yicha o'zaro bahslashdi. Sog'lom raqobat muhitida o'tgan bellashuv o'sib kelayotgan yosh

avlod vakillarining hech kimdan kam emasligini, sportda, bilmida, san'at va ijodda o'zlarini namoyon eta olishini isbotladi. Musobaqa yakunida yuqori o'rinnlarni egallaganlar tashkilotchilar tomonidan munosib rag'batlantirildi.

Shundan so'ng yoshlari va faxriylar Shimoli-g'arbiy harbiy okrug tarixi muzeyidagi eksponatlar bilan yaqindan tanishib, harbiy okrugi shonli o'tmishi va buguni haqida ma'lumotlarga ega bo'ldi.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati

Uch avlod uchrashuvi



Tinchlik yo'lida jonfido qilganlarning nomi abadiylikka muhrlanadi. Ular aslo unutilmaydi. Yurtimizda o'tganlarni yod etish, jasoratlarini ulug'lash kabi xislatlar qadriyat darajasiga ko'tarilgan. Zotan, yosh avlodni ota-bobolarimizning Vatan tinchligini asrashdek ulug'ver vazifani ado etib, ko'sratgan mardliklaridan boxabar qilish bizning insoniy burchimizdir.



Poytaxtimizda joylashgan "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasida 9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan o'tkazilgan uch avlod uchrashuvi ham ushbu maqsadlarga xizmat qildi. Unda Mudofaa vazirligi Birlashgan Kasaba uyushmalari qo'mitasi vakillari, faxriylar hamda o'quvchi-yoshlari ishtirok etdi. Dastlab sana munosabati bilan "Mangu matonat" monumenti poyiga gulchambar qo'yildi.

Shundan so'ng "Shon-sharaf" davlat muzeyida tadbirdirning ikkinchi qismi bo'lib o'tdi. Unda xalqimizning front va front ortida ko'sratgan mardligi, matonati, bag'rikengligi hamda insoniyligi borasida so'z bordi. Tadbir doirasida o'quvchi-yoshlari tomonidan Ikkinchiji jahon urushi davrida yurt ozodligi uchun kurashib, jon olib-jon bergan o'zbek o'g'il-qizlari turli obrazlarda gavdalantirildi. Ularning olovli jang maydonidagi ayanchli qismati yig'ilganlarni befarq goldirmadi.

Tadbir yakunida ijro etilgan Vatan va tinchlikni tarannum etuvchi taronalar barchaga birdek manzur bo'ldi.

O'z muxbirimiz

Jasorat lavhalari

PROFESSOR

Hamdam Usmonovning QAHRAMONLIGI



- Leytenant Usmonov!
 - Eshitaman, o'rtoq mayor!
 - Qo'l ostingdagi jangchilar bilan sharlarni yuqoriga chiqarishga tayyorlan!
 - Tayyormiz, o'rtoq mayor, buyruqni kutyapmiz.
 - Unda qorong'i tushmasdan vazifani ado eting! Fashistlardan hamma narsa kutsa bo'ladi. Moskvanı asrashimiz shart!
 - Xo'p bo'ladi!
 - Yosh ofitser muhim topshiriqni bajarish oldidan safdoshlariga yuzlandi:
 - Yigitlar, sharlar va to'rlarni tekshirib chiqdingizmi, hammasi joyidami?
 - Joyida, muammo yo'q.
 - Har doimgidek birma-bir ko'zdan o'tkazdik... - javob qaytardi yigitlar.
 - Yaxshi, unda boshladik!
- * * *

1941-yilning 22-iyunida insoniyat tarixidagi eng dahshatlari muhorabaga bong urildi. Bu millionlab insonlar qatori Hamdam Usmonov hayotida ham keskin burilish yasadi. O'rta Osiyo davlat universitetini bitirib, oliyogorda assistent bo'lib faoliyat yuritayotgan bilimdon yigit kimyo yo'nalishida ilmiy tadqiqotga qo'l urdi. Izlanishlar, intilishlar o'z samarasini berdi. Va niyoyat, uning nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilishi 6-avgust kuniga belgilandi. Baxtga qarshi 1941-yilning 1-avgustida Hamdamga harbiy komissarlikdan chaqiruv qog'ozni keldi. Qanday yo'l tutish kerak? Bo'lajak olim olib borgan ilmiy izlanishlari, yangilik yaratish yo'lida, ilm yo'lida tunlarni tongga ulagan zahmatli mehnati nahotki yo'qlikka yuz tutsa?! Axir shafqatsiz jangohlarda hamma narsa sodir bo'lishi mumkin.

Universitet ilmiy kengashining iltimosiga ko'ra, Usmonovning frontga yo'l olishi bir haftaga kechiktirildi. U belgilangan kunda dissertatsiya yoqlab, ximiya fanlari nomzodi e'tirofiga sazovor bo'ldi. Ilmiy darajaga ega bo'lgan yosh olimertasigayoq frontga otlandi.

Hamdam Usmonov dastlab harbiy bilim yurtida ma'lum muddat saboq oldi. Minomyotchilik ixtisosini egallab, ofitser maqomiga erishdi. Shundan so'ng 90-o'zbek o'qchilar brigadasi safiga qo'shildi va Moskvani himoya qilishga jalb etildi. Bu paytda gitlerchilar shahardan uloqtirib tashlangan, biroq xavf yo'qolmagandi. Fashistlarning samolyotlari tunda uchib kelib, bombardimon qilish ehtimoliyuqori edi. Shu sabab harbiylar Moskva osmonini har tomonidan himoya qilishga jon-jahdi ila bel bog'lagandi. Ularning safidagi 90-o'zbek o'qchilar ham kecha-yu kunduz shahar himoyasida jonbozlik ko'rsatardi.

Mudofaachilarning asosiy vazifasidan biri qosh qoraydi deguncha arqonlarga mustahkamlangan katta havo sharlarini shahar osmoniga chiqarishdan iborat edi. Geliy yoki vodorod gazlari to'ldirilgan sharlar oralig'iga katta to'rlar osilardi. Shu yo'sinda Moskva atrofi havodon aylana mudofaa qilinardi. Agar dushman samolyotlari shahar osmoniga kunduzi kirgudek bo'lsa, zenitchilar qo'liga tushar, tunda esa osmon to'rlariga ilinardi. Gitlerchilar Moskva ostonasidan chekinganiga qaramay, bir necha bor hujum qildi, ammo jangchilar poytaxtni metin qoya yanglig' matonat ila himoya qildilar. Bosqinchilar umidini uzishga majbur bo'ldi...

Moskva katta xavfdan xoli bo'lgach, Usmonov xizmat qilayotgan brigada Donbass uchun bo'lgan janglarda ishtiroy etdi. 82-minomyotchilar rotasiga komandirlirk qilgan Hamdam Usmonovga qo'mondonlik tomonidan zalvarli jangovar vazifa yuzlatildi:

- Leytenant Usmonov, fashistlar qo'qqisidan qarshi hujumga o'tmoqchi. Minomyotchilaringga alohida topshiriq bor.

- Eshitaman, o'rtoq mayor, har qanday vazifaga tayyormiz!

- Dushmani anhordan kechib o'tishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Minomyotlarni kerakli pozitsiyalarga joylashtir! Birorta fashist bu tomonqa o'tmasin!

- Xo'p bo'ladi!

Gitlerchilar bilan sovet qo'shinlari o'rtasida katta anhor bo'lib, anchayin keng va chuqur edi. Uning tezoqar suvidan kechib o'tish oson emasdi. Biroq dushman qarshi hujumda undan o'tishi aniq. Usmonov zudlik bilan qo'l ostidagi vzvod komandirlari bilan reja tuzdi va minomyotlarni kerakli nuqtalarga joylashtirdi. Ko'p fursat o'tmay, son jihatdan bir necha barobar ko'p bo'lgan dushman askarlari ko'rindi va kutilganidek suvga tusha boshladи. Ularning ko'p qismi anhorga tushib bo'lgach, rota komandiri kuzatuv punktidagi turib, minomyotlardan baravariga o't ochishni buyurdi. Sarosimaga tushgan dushman askarlarining ko'p qismi yo'q qiliindi. Qolganlari ortga qarab ochdi. Rota birorta jangchi yo'gotmay, g'alaba qozondi.

Usmonov g'alabaga qadar ko'plab janglarda ishtiroy etdi. 1945-yilda ko'ksida "Qizil Yulduz" ordeni va bir qator medallar bilan ona yurtga qaytdi. O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi, kimyo fanlari doktori, professor Hamdam Usmonov umrining so'ngiga qadar yurt xizmatida, el e'zozida bo'ldi.



Ikkinci jahon urushining ilk kunlarida frontga jalb etilgan Juman Qoraqulov harbiylik sabog'ini egallagach, gvardiyachi katta serjant unvoni bilan jangga otlandi. Unga 327-tog'li-o'qchi polkining bo'linma komandirligi ishonib topshirildi. Bu ishonch Jumanning harbiy tayyorgarlik jarayonida hamda ilk janglarda yoq o'zini ko'rsatganidan dalolat edi.

QORAQALPOQ ARSLONI

Fashistlarga qarshi janglar avyosiz davom etar, soniyalar ichida necha yuzlab o'g'lolarining umri xazon bo'lardi. Ammo jangchilar ortga chekinmas, qonxo'r bosqinchilar yanchishga intilar, har qadamda qahramonlik ko'rsatardi. Qoni qaynoq, navqiron Juman ham janglardi kutilmagan harakatlari bilan safdoshlarini hayratga solardi.

Chexoslovakiyani fashistlardan ozod qilishda ham qoraqalpoq o'g'loni mardlik naunalarni ko'rsatdi. 762-tepalikni egallash oson kechmadi, bir necha bor qo'ldan qo'lga o'tdi. Tepalik temiryo'l uzeli yaqinida bo'lib, uni gitlerchilar kuchli tayanch punktiga aylantirgandi. Tepalikni egallash uchun bo'lgan navbatdagi janglarda faqat ikki gvardiyachi-avtomatchi - Qoraqulov bilan Romanovskiy dushman transheyasiga yorib kirishga muvaffaq bo'ldi. Ikki shovvoz uch soat mobaynida egallagan pozitsiyalaridan fashistlar hamlasini tinimsiz qaytarib turdi. Afsuski, ularga madad kuchi yaqinlasha olmadidi, shu sabab dastlabki marraga qaytishga majbur bo'ldilar.

Ertasi kun takroriy hujum vaqtida ham dushman pozitsiyasiga birinchi bo'lib Qoraqulov bostirib kirdi. Rotadan ajralib qolganiga qaramay, handaqa joylashib olib, bir o'zi bir soat mobaynida gitlerchilarga qarata o't ochib turdi. Safdoshlari hujumga ko'tarilganida quroldan o'q yog'dirib oldinda bordi. Avtomatchi safdoshi bilan birgalikda transheya ichida fashistlarga qarshi jangga kirishib ketdi. Bosqinchilar ustiga tinimsiz o'q yog'dirib, qashqirlarning bosh ko'tarishiga yo'l bermadi. Shu tariqa ikki azamat rota jangchilari tepalikni egallashiga imkon yaratdi.

Kutilmaganda dushmanning omon qolgan pulemyoti rotanining orqa tomonida o't ochib qoldi. Jumanning ko'z o'ngida jangchi do'stlari bir-bir yerga qular, qaytib o'midan qo'zg'almasdi. Tog'li-o'rmon joyga biqinib olgan iblisni topib yo'q qilish oson emas. Yigit alam bilan mushtini mahkam

qisdi. "Shoshmay tur o'laksaxo'r, hozir dodingni beraman! – dushman DZOTi tomon emaklab ketdi u. – Shoshilish kerak, yo'qsa, yana qancha jangchilar umriga zomin bo'ladi bu iblis!" Ana, olov purkayotgan DZOT ko'zga tashlandi. "Yaqin borish kerak, yanada yaqin", harakatini tezlatdi Juman.

Bunday paytda avtomatdan o't ochish befoyda, o'zingni oshkor qilganing qoladi. Faqat dushman yaqiniga borib, kerakli nuqtaga granata irg'itish kerak. Juman tayyorlab qo'yan granatalarni qo'liga oldi. Masofa juda yaqin, granatalarni iblislar uyasiga otsa bo'lgani. Kutilmaganda fashistlar yigitni sezib qoldi. Buni anglagan bahodir o'g'lon soniyalar ichida o'zini olov chiqib turgan pulemyot ustiga otdi. Vujudini o'q ilma-teshik qilib tashladi. Juman oxirgi kuchini yig'ib, granatanasi ishga soldi, gitlerchilar yakson bo'ldi. Qahramon o'g'lon jasorat ko'rsatgan holda mardlarcha halok bo'ldi.

1945-yilning mart oyida gvardiyachi katta serjant Juman Qoraqulovga vafotidan so'ng Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni berildi. Sharafli nomi, qahramonligi tarixga muhrlangan qoraqalpog'istonlik jasur o'g'lon unutilmas xotirasi ila barhayotlar safidan o'rinni oldi.





Mudofaa vazirligi jamoasi bir necha yillardan buyon Xalqaro armiya o'yinlari tarkibiga kiruvchi dog biatloni musobaqasida qatnashib keladi. Xalqaro arenalarda to'plangan tajriba va har safar sovrindor jamoalar uchталigidan joy olish natijasida Ulug'bek Nurullayev, Daler Ikromov, Sodiq Dilmurodov, Saida Abdimo'minova, O'g'iloy Muzaffarov, Viktoriya Makarova ancha muddat kuch tuzilmalari miqyosidagi bahslarning har qanday ishtirokchisiga yengilmas raqib darajasiga erishdi. Ancha muddat deyishimizga sabab shuki, 2024-yilgi musobaqaqa



KUCH BIRLIKDA, MUVAFFAQIYAT SIRI ESA MAHORATDA



Kuch tuzilmalari hamkorligidagi o'quv-mashg'ulotlar milliy armiyamiz qudratini mustahkamlash kafolatini beruvchi omillardan biridir. Sport musobaqalarini muntazam o'tkazish orqali harbiy xizmatchilarning jismoniy hamda jangovar tayyorligi oshirib boriladi. Mudofaa vazirligi mutaxassis va xizmat itlarini tayyorlash markazida 9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan tashkillashtirilgan dog biatloni musobaqasi ham shular jumlasidandir.



qadar shohsupaning eng yuqori pog'onalarini aynan Mudofaa vazirligi sharafini himoya qilgan harbiy xizmatchilarga nasib etardi. Bu safar kuch tuzilmalari jamoalarini ham, ular tarkibidagi qatnashchilarini yengilmas raqib bilan munosib bellasha oldi.

To'rt ayol (Mudofaa vazirligi va Milliy gvardiyadan ikkitadan) va to'qqiz erkak (Mudofaa, Ichki ishlar vazirliklari, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiyadan ikkitadan, Bojxona qo'mitasidan bitta), jami o'n



2-o'ringa yetarli bo'ldi. Musobaqaning ayollar o'rtasidagi aynan shu yo'nalishida barcha sovrinli o'rinalar Mudofaa vazirligi sharafini himoya qilgan harbiy xizmatchilarga nasib etdi.

300 metrlik to'siqlar yo'lagidan o'tish bahslarining shaxsiy birinchiligi Muslim Alimov (Mudofaa vazirligi) tomonidan zabit etilgan bo'lsa-da, jamoaviy ko'rsatkich bo'yicha Milliy gvardiya harbiy kinologlariga teng keladigan topilmadi. Jamoasining bunday yuqori



uchta jamoa tarkibida ellikka yaqin harbiy kinolog o'z xizmat itlari bilan to'rt kun davomida sovrinli o'rinalar uchun kurash olib bordi. Musobaqa yakkalik va jamoaviy biatlon hamda 300 metrlik to'siqlar yo'lagidan o'tish shartlari bo'yicha o'tkazildi.

Kutilganidek, musobaqaning birinchi kuni Mudofaa vazirligi jamoasi yakkalik biatlonida mutlaq ustunlikka ega ekanini ko'rsatdi. Chunki Ulug'bek Nurullayev "Bayar" laqabli xizmat iti bilan 3 200 metrlik masofani 12 daqiqa, 43 soniyada bosib o'tib, rekord natijani qayd etdi. Chegara qo'shinlari jamoasi sharafini himoya qilgan Doston Chinpo'latov otish nuqtasida biroz aniqroq harakat qilganda 1-o'rin uchun oxirigacha kurasha olar edi. Ammo uning asosiy e'tiborni yugurishga qaratgani natijasi

natijsiga Sardor Nurmatov munosib hissa qo'shdı. Shunisi e'tiborlikki, 9-may - Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan tashkillashtrilgan dog biatloni musobaqasi tomoshabinlarga boy bo'ldi. Chirchiqlik yoshlar va dog biatloni bahslarining haqiqiy ixlosmandlari harbiy kinologlar mahoratini va "Bayar", "Best", "Berg", "Klif", "Gita", "Rokki" kabi xizmat itlarining harakatlarni olqishlar bilan kuzatib bordi.



Chinpo'latov (Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari), 3-o'rin - Sodiq Dilmurodov (Mudofaa vazirligi).

300 metrlik to'siqlar yo'lagidan o'tish: 1-o'rin - Muslim Alimov (Mudofaa vazirligi), 2-o'rin - Sardor Nurmatov (Milliy gvardiya), 3-o'rin - Daler Ikromov (Mudofaa vazirligi).

Yakkalik bahsler. Ayollar. Dog biatloni: 1-o'rin - Viktoriya Morozova, 2-o'rin - Saida

Abdumominova, 3-o'rin - O'g'iloy Muzaffarova (hammasi Mudofaa vazirligidan).

300 metrlik to'siqlar yo'lagidan o'tish: 1-o'rin - O'g'iloy Muzaffarova, 2-o'rin - Viktoriya Morozova, 3-o'rin - Aziza Bahromova (hammasi Mudofaa vazirligidan).

O'z jamoalari sharafini munosib himoya qilgan g'olib hamda sovindorlar kubok, diplom va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi. Musobaqaning tantanali yopilish marosimida harbiy orkestr ijrosidagi kuy-qo'shiqlar va jamoalarning ko'rgazmali chiqishlari namoyish etildi.

Tadbir yakunida qatnashchilar musobaqani tashkillashtrishda o'z hissasini qo'shgan Shodiyor Shomurodov, Javlon Nizomov, Shokir Jo'rayev, Ahmadjon Gadoyev, Zohid Azimov, Romesh Iskandarov singari Mudofaa vazirligi Mutaxassis va xizmat itlarini tayyorlash markazi mutaxassislariga minnatdorlik bildirdi.

Asror RO'ZIBOYEV



Tojikistonda o'tkazilgan dzyudo bo'yicha mukofot jamg'armasi 154 ming yevroni tashkil etuvchi "Katta dubulg'a" turkumiga kiruvchi musobaqada dunyoning 65 davlatidan borgan 400 nafarga yaqin

polvon bosh sovrin bilan birga "Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'yinlari yo'lidagi qimmatli reyting ochkolari uchun ham bellashdi. Muxlislar tatamiga chiqqan dzyudochilarimiz orasida bu safar MVSM va O'zbekiston terma jamoasining

Tarkibidan Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakillari ham o'r'in olgan yuritimir dzyudochilar Tojikiston poytaxti Dushanbe shahrida o'tkazilgan "Katta dubulg'a" turkumiga kiruvchi yirik musobaqada ishtirot etishdi. Ozarbayjonning Gyoygyol shahrida esa dzyudo bo'yicha o'smirlar o'rtasida "Yevropa kubogi – 2024" musobaqasi bo'lib o'tdi. Bellashuvlar davomida vakillarimiz muvaffaqiyati sharafiga uch marta O'zbekiston bayrog'i ko'tarilib, bir marta madhiyamiz baralla yangradi.

YOSHLAR ISHONCHNI OQLASHDI

Diyora Keldiyorova, Gulnoza Matniyazova, Sardor Nurillayev, Murodjon Yo'ldoshev, Muhriddin Tilovov, Davlat Bobonov kabi yetakchi polvonlarini ko'rishmad. Terma jamoamiz murabbiylari bu gal asosan yoshlarga imkon berishga qaror qilishdi va Dushanbe tatamlaridagi bellashuvlar yoshlarimiz uchun tajriba-sinov vazifasini o'tadi. Shunday bo'lsa-da, mutaxassislarining e'tirof etishiga ko'ra, iste'dodli sportchilarimiz bahslarda munosib ishtirot etishdi. Xususan, umidli dzyudochimiz Muhammad Jumayev (-73 kg) kuchli sportchilar bilan munosib bellashib, bronza medalga sazovor bo'lish asnosida Xalqaro dzyudo federatsiyasida ilk bor o'z reyting

ochkolarini jamg'arishga muvaffaq bo'ldi. Muhammad 3-o'r'in uchun kurashda mo'g'ulistonlik Enxtur Jugdergaravdan ustun keldi. Qayd etish joiz, bu Jumayevning kattalar o'rtasidagi xalqaro musobaqada qo'liga kiritgan dastlabki sovrini bo'ldi.

Xalqaro turnir yakuniga ko'ra, Shveysariya terma jamoasi 2 ta oltin va 2 ta kumush medal bilan umumjamoa hisobida 1-o'rinni egalladi. Avstriya terma jamoasi 2 ta oltin, bitta kumush medal bilan ikkinchi, italiyaliklar 2 ta oltin, bitta bronza medal bilan kuchli uchlikdan joy olishdi. Yurtimiz dzyudochilarini endi 10-12-may kunlari Qozog'istonda o'tadigan "Katta dubulg'a" turniri kutmoqda.

Ozarbayjonning Gyoygyol shahrida dzyudo bo'yicha poyoniga yetgan "Yevropa kubogi – 2024" musobaqasida esa yosh polvonlarimiz muvaffaqiyati sharafiga uch marta O'zbekiston bayrog'i ko'tarilib, bir marta madhiyamiz baralla yangradi. 14 mamlakatning 323 nafar dzyudochisi ishtirokidagi turnirda iste'dodli murabbiy Tohir Fayziyev yetakchiligidagi 4 nafar o'smir sportchimiz tatamiga chiqdi. Ularning 3 nafari sovrindorlar qatoridan joy egalladi. Musobaqaning dastlabki kungi bellashuvlarida -60 kg vaznda kurash olib borgan hamyurtimiz Bahrom Asatov barcha raqiblarini yengib, championlik shohsupasiga ko'tarildi. Shodiyor Shavkatovga (-50) esa bronza medal nasib etdi. Musobaqaning so'nggi kuni og'ir (-81 kg) vazn toifasidagi bellashuvlarda qatnashgan hamyurtimiz Muhammадали Sa'dullayev ham yakunda bronza medalga ega bo'ldi.

Joriy yil Parij shahrida (Fransiya) bo'lib o'tadigan XXXIII yozgi Olimpiada va XVII Paralimpiya o'yinlarida faoliyat olib boruvchi hakamlarimiz safi ham tobora kengaymoqda. Xususan, Xalqaro dzyudo federatsiyasi (IJF) bo'lajak Olimpiadada ishtirot etadigan referilar ro'yxatini e'lon qildi. Undan hamyurtimiz, xalqaro toifadagi hakam Vyacheslav Pereteyko ham o'r'in olgan. Ma'lumot uchun, Pereteyko bundan avval "Tokio – 2020" Paralimpiya o'yinlarida ishlagan edi.

Futbol

OLIMPIYACHILARI OSIYO MIQYOSIDA IKKINCHI

Qatarda tashkil etilgan futbol bo'yicha yoshlar (U23) o'rtasidagi Osiyo kubogi bahslari yakunlandi va "Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'yinlarining futbol musobaqasida qatnashadigan qariyb barcha terma jamoalar nomi ma'lum bo'ldi.

Tarixda ilk bor yozgi Olimpiada o'yinlari yo'llanmasini qo'liga kiritgan O'zbekiston Olimpiya terma jamoasi bu galgi Osiyo kubogi bahslarini 2-o'rinda yakunladi.



Temur Kapadze boshchiligidagi O'zbekiston olimpiya terma jamoasi "Jassim Bin Hamad" stadionida o'tgan so'nggi hal qiluvchi final o'yinida Yaponiya bilan bosh sovrin uchun o'zaro kuch sinashdi. Qariyb teng kurash ostida kechgan bahs uchrashuvning

so'nggi soniyalarida kiritilan yagona gol tufayli yaponiyaliklar g'alabasi bilan yakunlandi. Shu tariqa, Yaponiya yoshlar (U23) terma jamoasi bosh sovrinni qo'liga kirdi, O'zbekiston yoshlar terma jamoasi esa 2-o'rinni egalladi.

Qatardagi "Abdullah bin Nasser bin Khalifa" stadionida Iroq va Indoneziya terma jamoalar Olimpiada yo'llanmasi va Osiyo kubogining bronza medali uchun o'zaro raqobatlashdi. Mazkur bahsda Iroq terma jamoasi 2:1 hisobida g'alaba qozondi va bronza medalni qo'liga kiritib, "Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'yinlariga yo'l oldi.

Shu tariqa, joriy yilning 24-iyulidan 10-avgust kuniga qadar Fransiya poytaxti Parij shahrida bo'lib o'tadigan Olimpiadaning futbol musobaqasida ishtirot etadigan qariyb barcha terma jamoalar nomi aniq bo'ldi. Olimpiadada

16 ta futbol jamoasi 4 ta guruhga 4 tadan bo'lingan holda turnir g'olibligi uchun kurashni boshlaydi. Osiyo kubogi musobaqasi natijasiga ko'ra g'olib, ya'ni Yaponiya "Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'yinlarining "D" guruhidan, kumush medal sohibi O'zbekiston "C" guruhidan, bronza medalni qo'liga kiritgan Iroq "B" guruhidan joy oldi. To'rtinchli o'rinni egallagan Indoneziya esa Olimpiadaga chiqish uchun Afrika kubogida 4-o'rinni egallagan Gvineya termasiga qarshi qit'alararo "play-off"da maydonga tushadi. Shu tariqa, XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlarining futbol musobaqasida guruhlar quyidagicha ko'rinish oldi:

"A" guruh – Fransiya, AQSh, Indoneziya yoki Gvineya, Yangi Zelandiya;
"B" guruh – Argentina, Marokash, Iroq, Ukraina;
"C" guruh – Ispaniya, O'zbekiston, Misr, Dominikan Respublikasi;

"D" guruh – Yaponiya, Paragvay, Mali, Isroiil.

Ma'lumot uchun, Temur Kapadze boshchiligidagi O'zbekiston Olimpiya terma jamoasi "Parij – 2024" dagi ilk o'yinini 24-iyul kuni Ispaniyaga qarshi o'tkazadi. 27-iyul kuni Misr bilan raqobatlashsa, 30-iyul kuni Dominikan Respublikasi futbolchilariga qarshi maydonga chiqadi.

Yurtimiz futbol muxlislari uchun yana bir xabar. Ma'lumki, Osiyo championlar ligasining G'arb va Sharq mintaqasidan finalga yo'l olgan BAAning "Al Ayn" va Yaponiyaning "Yokogama Marinos" jamoalar o'rtasidagi final o'yini joriy yilning 11-may va 25-may kunlari bo'lib o'tadi. Osiyo futbol konfederatsiyasi mazkur o'yinlarni boshqarib boradigan hakamlar guruheni e'lon qildi. Unga ko'ra, Ilgiz Tantashev boshchiligidagi o'zbekistonlik hakamlar jamoasi 25-may kuni BAA Da Osiyo championlar ligasi g'olibani aniqlanadigan so'nggi uchrashuvni boshqarib boradi. Uchrashuvda Tantashevga qanolarda Andrey Sapenko va Timur Gaynullin yordam ko'rsatsa, Rustam Lutfullin zaxira hakami vazifasini bajaradi. Yana bir o'zbekistonlik futbol mutaxassisini Sanjar Shoyusupov zaxira hakami yordamchisi etib belgilangan.

Savobli amallar

INSON QADRI ULUG', XOTIRASI MUQADDAS



9-may – Xotira va qadrlash kuni, g'alanbaning 79 yilligi munosabati bilan respublikamiz bo'ylab O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti xodimlari ezgu va savobli amallarga qo'l urmoqda.

Tashkilotning Samarcand viloyati kengashi raisi Bekzod Rahimov boshchiligidagi xodimlari va Qurolli Kuchlar faxriylari shahardagi Bog'i Temur mahallasida istiqomat qilayotgan 1925-yilda tug'ilgan Ikkinchil jahon urushi qatnashchisi Kolmogorov Mixail Vasiljevich holdidan xabar oldilar. Frontda radioaloqachi sifatida xizmat qilgan M. Kolmogorov urush yillarda boshdan kechirgan qayg'uli xotiralarini mehmonlar bilan o'rtoqlashdi.

Uchrashuv davomida urush faxriysi tinchlik eng bebaho ne'mat ekanligini, uni asrash har bir insonning oliy burchi bo'lmog'i lozimligini ta'kidladi.

So'ngra "Vatanparvar" tashkiloti xodimlari va faxriylar Nurobod tumanidagi 13-umumta'lim maktabiga borib, u yerda o'rnatilgan marhum harbiy xizmatchi Ismatullo Xo'jayev byusti qarshisida uning xotirasiga hurmat bajo keltirdi. Uning jasorati haqida hikoya qiluvchi xotira burchagi bilan tanishdi.

Tadbirdan so'ng Vatan oldidagi burchini ado etish chog'ida yurtimiz tinchligi va xalqimizning bugungi osoyishta hayoti yo'lida jonini fido qilgan Ismatullo Xo'jayevning oilasi holidan xabar olindi. Marhum harbiy xizmatchining oila a'zolari yo'qlovchilarga uning bolaligi, hayot yo'l va kelajakdag'i orzulari to'g'risida gapirib berdi.

Katta leytenant Ismatullo Xo'jayev 2000-yilda Surxondayro viloyatida yurtimizga suqilib kirgan buzg'unchi kuchlarga qarshi kurashda qahramonlarcha halok bo'lgan. Nurobod tumanining Oqsoy qishlog'iga olib boruvchi katta ko'chaga Ismatullo Xo'jayev nomi berilgan.

Vatanimiz va uning mustaqilligini asrash yo'lida jonini fido qilgan vatandoshlarimiz xalqimiz xotirasida abadiy yashaydi. Ularning hayot yo'l yoshlarimiz uchun doimo o'rnak va namuna bo'lib xizmat qilishi muqarrar.

TUMAN BOSQICHIGA START BERILDI



Respublika bo'ylab "Shunqorlar" harbiy sport o'yinlarining tuman (shahar) bosqichi boshlandi. Unda mamlakatimiz hududlarining to'rtta sektor kesimida bahslashib, g'oliblikni qo'liga kiritgan jamoalar bellashmoqda.

Joriy yilning mart oyida "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi, Yoshlar ishlari agentligi hamda bir qator vazirlik va idoralar o'rtasida imzolangan "Shunqorlar" harbiy-vatanparvarlik spartakiadasini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida gi qarorga muvofiq, mazkur o'yinlarning mahalla, tuman (shahar), hududiy va respublika bosqichlari o'tkazilishi belgilangan.

Ta'kidlash joizki, o'yinlarning tuman (shahar) bosqichi mahalla bosqichiga nisbatan ancha murakkabligi bilan ajralib turadi. Ushbu bosqichda 17 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan yoshlardan tashkil topgan jamoalar uch blokdan iborat sinovlardan o'tkaziladi.

"Harbiy-vatanparvarlik" blokida jamoa a'zolarining O'zbekiston harbiy tarixiga doir bilimlari tekshiriladi. Shuningdek, saf qo'shig'i va "Biz – bir jamoamiz!" ko'rik-tanlovleri o'tkaziladi.

"Harbiy-amaliy ko'pkurash" blokida jamoalar pnevmatik quroldan o'q otish, o'quv granatasini uzoqlikka uloqtirish va harbiylashtirilgan estafeta bo'yicha bellashadilar. Harbiylashtirilgan estafeta doirasida yoshlar AK-74 avtomatini noto'liq qismrlarga ajratish va to'liq yig'ish hamda gazga qarshi niqbobi kiyib, belgilangan masofaga yugurish shartlarini bajaradilar.

"Sport" blokida duatlon, 100 metr masofaga yugurish va turnikda tortilish bo'yicha o'zaro musobaqaqlashadilar.

Eslatib o'tamiz, "Shunqorlar" harbiy sport o'yinlarining respublika bosqichida g'olib bo'lgan jamoa O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisining kubogi bilan taqdirlanadi.

Mazkur o'yinlarni o'tkazishdan asosiy maqsad, yoshlarni Vatanga sadoqat va yuksak harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, chaqiriqqa qadar yoshlarni Qurolli Kuchlar safida xizmat qilishga qiziqishini oshirib borish hamda ularni ruhan va jismonan chiniqtirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

Men vatanparvarman

GALDAGI MANZIL – FARG'ONA

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokururaturasi tomonidan kuch tuzilmalari va mutasaddi tashkilotlar hamkorligida "Men vatanparvarman" loyihasi davom ettirilmoqda.

Navbatdagi tanlovlardan Farg'ona tumanining chegaraoldi hududida joylashgan 22-, 31- va 53-umumta'lim maktablari o'quvchi-qizlari ishtirotida bo'lib o'tdi.

Uch kun davom etgan tadbirdarda qizlarimizning vatanparvarligi,

qolaversa chuqr bilim va keng dunyoqarashga ega ekanliklari yorqin namoyon bo'ldi.

Ularning Vatanga muhabbat, burchga sadoqat, buyuk ajodolarimiz va ma'rifatparvar jadidlarimiz siyomosi aks ettirilgan ijodiy ishlari va sahna ko'rinishlari ham e'tirofga loyiq topildi.

Tadbir yakunida g'oliblar va faol o'quvchilar hamda loyihada namunalni ishtirot etayotgan ayol harbiy xizmatchilar esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

**Adliya podpolkovnigi
Oybek SHERMATOV,
Farg'ona harbiy prokurorining
o'rinosbosari**

Uchrashuv

PROKUROR VA YOSHLAR

Bosh prokuratura Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, Buxoro harbiy prokuratura vakillari hamda Buxoro tumanidagi Madaniyat, Rabot, Rabotiqalmoq, Shergiron, Xonobod mahalla yoshlari ishtirokida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Muloqotda oliy ta'lif muassasalariga o'qishga kirish, harbiy xizmatga borish, yer ajratilishi, doimiy ishga joylashish va yoshlarni qiziqtirgan boshqa masalalarda tushuntirishlar berildi.

Shuningdek, Buxoro harbiy prokururaturasi tomonidan Mudofaa vazirligi va IIIV Qorovul qo'shinlariga qarashli harbiy qismrlarda "Huquqburzalikka qarshi kurash – kundalik vazifa" mavzusida huquqiy targ'ibot tadbirlari o'tkazildi.

**Adliya katta leytenant
Dilshod ABDULLAYEV,
Buxoro harbiy prokurorining
yordamchisi**

Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida

Yosh avlod ma'naviyatini
yuksaltirish hamda ularni
harbiy-vatanparvarlik
ruhida tarbiyalash
borasida O'zbekiston
Respublikasi mudofaasiga
ko'maklashuvchi
"Vatanparvar" tashkilotining
Sirdaryo viloyati kengashi
tasarrufidagi Sardoba
tumani o'quv sport-texnika
klubi jamoasi tomonidan
ko'plab xayrli ishlar amalga
oshirilmoqda.



Xususan, harbiy-vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib etish, ommaviy kasb mutaxassislarini tayyorlash hamda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasidagi yutuqlar shular sirasidandir. Chunonchi, bu boradagi ishlar ko'lamini oshirish maqsadida tuman hokimligi, harbiy qismlar, mudofaa, maktabgacha va maktab ta'limi bo'limgari, Yoshlar ishlari agentligi, mahallalar hamda ma'naviyat targ'ibot markazi

Keyingi yillarda
O'zbekiston Respublikasi
mudofaasiga
ko'maklashuvchi
"Vatanparvar"
tashkilotining Sirdaryo
viloyati kengashi
tasarrufidagi Mirzaobod
tumani o'quv sport-
texnika klubida
yoshlarning jismoniy
va ma'naviy yetuk
bo'lishlariga alohida
e'tibor qaratilmoqda.
Shu bois ayni maqsadga
xizmat qiluvchi chora-
tadbirlarning izchil
ijrosini ta'minlashga
erishilmoxda



tuman bo'limlari bilan hamkorlikda qator tadbirlar amalga oshirilmoqda.

- Jumladan, yaqinda O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi kubogi uchun "Shunqorlar" harbiy sport o'yinlarining sektorlar kesimida mahalla bosqichlari o'tkazildi,- deydi O'STK boshlig'i Shohrux Nazarov. - Bellashuvlarda mahallalarning 17 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan yoshlari va umumta'lim maktabalarining yuqori sinf o'quvchilaridan tashkil topgan jamoalar o'zlarining jismoniy imkoniyatlarni namoyish etdi. Bunday tadbirlarni o'tkazishdan maqsad, yoshlarimizni ona yurtimizga munosib vatanparvar insonlar bo'lib kamol topishiga ko'maklashishdan iboratdir.

Ayni paytda klubda faoliyat yuritayotgan "Havo miltig" idan o'q otish", "Yozgi biatlon" hamda "Duatlon" kabi to'garaklar faoliyatini zamon talablarini asosida tashkil etilgan. Bu seksiyalarda o'ttiz nafardan ortiq yosh muntazam shug'ullanib kelmoqda. Tuman yoshlari viloyat va mamlakat miqyosida o'tkazilayotgan musobaqlarda faol ishtirot etmoqda. Masalan, klub a'zosi Aziza Rustamova o'q otish

bellashuvlarida ishtirok etib, viloyat musobaqasida faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

Bundan tashqari, tashkilot faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri ommaviy kasb xodimlarini tayyorlash ishlari ham zamon talablari asosida tashkil etilgan. Bu borada klub jamoasining o'tgan yil mobaynida erishgan yutuqlari chakki emas. Bunga ko'ra, 550 nafar "B", "BC" toifali haydovchi tayyorlandi. Ayni paytda ham bu yo'nalishdagi faoliyat ko'lami yanada rivojlantirilib, bo'lajak haydovchilarning yetarli darajada bilim olishlari uchun ham nazariy, ham amaliv mashg'ulotlar olib borilmogda.



YOSH AVLOD KAMOLOTIGA MUHIM E'TIBOR

Bu boradagi tadbirlar, ayniqsa
“Vatanparvar” tashkiloti markaziy kengashi
raisi kubogi uchun o’tkazilayotgan
“Shunqorlar” harbiy sport o’yinlarida
ham o’z ifodasini topmoqda. Yaqinda
tumandagi Haqiqat, Oqoltin,
Toshkent, Tinchlik hamda Bog’iston
mahallalaridagi 17 yoshdan
22 yoshgacha bo’lgan yoshlar
va umumta’lim maktablarining
yuqori sinf o’quvchilaridan tashkil topgan jamoalar
ishtirokida “Shunqorlar” harbiy sport o’yinlarining tuman
bosqichi bo’lib o’tdi

Musobaqada jamoalar ikki blokdan iborat sinovlardan o'tkazildi. "Harbiy-vatanparvarlik" blokida ishtirokchilarning mamlakatimiz harbiy tarixiga doir bilimlari sinaldi. Shuningdek, saf qo'shig'i ko'rik-tanlovi ham o'tkazildi.

“Harbiy-amaliy ko’pkurash” blokida jamoalar o’quv granatasini uzoqlikka uloqtirish va harbiylashtirilgan estafeta bo'yicha bellashdilar. Bunda yoshlari “AK-74” avtomatini noto'liq qismlarga ajratish va to'liq yig'ish hamda gazga qarshi niqobni kiyib, belgilangan masofaga yugurish shartlarini bajarishdi. Bundan tashgari

100 metr va uzoq masofaga yugurish, turnikda tortilish bo'yicha o'zaro musobiqalashdi.

Do'stona ruhda o'tgan bellashuvlarda Haqiqat mahallasidagi 29-umumta'l'm maktabining "Shunqorlar" jamoasi 1-o'rinni egallab, viloyat bosqichiga yo'llamma oldi. G'olib va yuqori o'rirlarni egallagan jamoa a'zolariga "Vatanparvar" tashkilotining diplom va esdalik sovg'alari tashkilildi.

topshirildi.

– Shuningdek, 9-may – Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlab hamkor tashkilotlar ko'magida bir qancha ma'naviy va sport tadbirlari ham tashkil etildi – deydi O'STK boshlig'i Ildar Xusainov. – "Uch avlod uchrashuvni", "Ochiq eshiklar kuni" kabi tadbirlar davomida ishtiroy etgan turli soha vakillari yurtimizda yoshlarni uchun yaratilayotgan sharoitlar hamda mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanish to'g'risida muhim tavsiyalarni berdi. Ishonamizki, bunday tadbirlar kelgusida yoshlarning barkamol shaxs sifatida tarbiyalanishlarida muhim o'rinni tutadi. Shu tufayli ham klubda harbiy-vatanparvarlik targ'iboti doirasidagi tadbirlar faol tarzda olib borilmogda.

Inson hayotda har xil vaziyatlarga duch kelishi mumkin. Ba'zida xursandchilikdan osmonlarga uchsa, ba'zida hammasi orqaga ketadi. Oila a'zolarining yoningda tirkak, suyanguvchi tog'ingdir. Bejiz oilani mehr va muhabbat oshyonini deb aytishmaydi. Ba'zida qadrondan do'st-u yaqinlaring har doim ham qo'lingdan tutmas ekan. Ishongan do'stlaring kutmagan chog'ingda pand berishi mumkin. Faqat birligina oilang seni har qanday vaziyatda doim qo'llab-quvvatlaydi.

Oila mustahkam bo'lsa, jamiyat ham osoyishta bo'ladi. Baxtli oilalar bilan jamiyat ham gullab-yashnaydi. Chunki o'zaro mehrli bo'lgan ota-onaning farzandlari ham bir-biriga mehribon bo'ladi. Oilaviy baxtning kaliti ishonch, hurmat va muhabbatga asoslangan uyg'un, iliq munosabatlarni yaratish va qo'llab-quvvatlashdir.

Har bir oilaning o'z baxt sirlari bor. Oilada ham shodlik ham g'am bo'ladi. Inson bu yo'lni bosib o'tar ekan, hayotga yanada teran nazar bilan boqadi, sinovlarda toblanadi. Bunda bizga hamjihatlik, hamfikrlik asqatadi. Axir insonning hayoti oiladan boshlanadi, sevgi va hurmat, quvonch va ezgulik haqidagi tushuncha shu dargohda paydo bo'ladi. Aynan oilada bizga tashqi dunyo bilan muloqot qilish o'rgatiladi. Bu yerda an'analar shakllanadi va avloddan avlodga o'tadi. Buning uchun har bir oila a'zosi o'z o'rnnini his qilishi juda muhim. Agar oilada asosiy qoidalarga bo'ysunilsa, u yerda tinchlik-xotirjamlik hukmron bo'ladi. Oila a'zolarining bir-biriga bo'lgan mehrining samimiyligi, dasturxon atrofida birga ovqatlanishi va uy yumushlarini birligida bajarishi, oilaviy bayram hamda sayohatlar tashkil qilishi, qolaversa, bolalar bilan sirlasha bilihda namoyon bo'ladi.

Quyida oila haqida go'zal fikrlarni saraladik.



Baxt QO'RG'ONI

Oila mo'jazgina bir jamiyatshadir, butun insoniyat jamiyatining daxlsizligi ham uning jip&ligiga bog'liq.

F. ADLER

Tartib-intizomning eng zo'r maktabi – oila.

S. SMAYLS

O'z uyida baxtli bo'lgan kishigina baxtlidir.

L. TOLSTOY

Tinchlik – hayotning go'zalligi. Bu quyosh nuri. Farzand tabassumi, ona mehri, ota quwonchi, oila ahilligi. Bu insoniyat taraqqiyoti, adolatlilikning g'alabasi, haqiqatlar tantanasidir.

M. ANJELU

Oilaviy hayot o'zaro muhabbat bilan bog'langan bo'lsa, katta baxt keltirishi mumkin.

I. KRUPSKAYA

Oila hayotining bosh muddao va maqsadi bolalar tarbiyasidir. Bolalar tarbiyasining bosh maktabi esa er-u xotin, ota-onaning o'zaro munosabatidir.

V. SUXOMLINSKIY

Uy langar, bo'ronda boshipana, yashash uchun baxtli joy, biz sevadigan va seviladigan maskan.

J. ESHTON

Siz oilangizni tanlamaysiz. Uning a'zolari xudonining sizga bergen in'omidi, xuddi siz kabi.

B. SHOU

Oilaviy manfaatlar deyarli hamma vaqt ijtimoiy manfaatlarni xarob etadi.

F. BEKON

SHOKOLADLI SHIRINLIK



Kerakli masalliqlar:

xamiri uchun: 400 ml iliq sut, bir choy qoshiq tuz, ikki osh qoshiq shakar, bir osh qoshiq xamirturush, 450 g un, qovurish uchun 300 ml o'simlik yog'i;

kremi uchun: 50 g 82,5 foizli sariyog' (xona haroratida yumshagan), 300 ml quyultirilgan sut;

qiyom uchun: 1 stakan shakar, 0,5 stakan suv solib, 20 daqqa davomida qaynatamiz;

bezak uchun: 60 g sutli yoki qora shokolad, qulupnay va boshqa mevalar kerak bo'ladi.

Tayyorlanishi: sut, tuz, shakar, xamirturushni aralashtirib, ustini yopib, 15 daqqa olib qo'yamiz. Aralashma oshib chiqquncha, elangan unga aralashmani solib, yopishqoq, cho'ziluvchan xamir tayyorlab olamiz. Ustini yopib, 1 soatga oshishi uchun olib qo'yamiz. Tortni bezatish uchun ishlatalidigan qopchaniga yog'lab, oshgan xamirni unga solamiz va shakkarni pishirib olamiz. Tayyor bo'lgan bo'g'irsoqlarni xohishga ko'ra krem yoki qiyomga aralashtirib, ustini shokolad va qulupnay bilan bezatamiz.

Yoqimli ishtaha!

Ikkinci jahon urushida qozonilgan g'alabaga hissa qo'shgan barcha urush va front orti mehnat faxriylariga yuksak hurmat-ehtirom ko'rsatish, yurt himoyachilarining Vatanga sadoqatini namoyish etish hamda aholi, ayniqsa, yoshlarda faxr va iftixor tuyg'ularini oshirish maqsadida Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan Toshkent shahrining asosiy ko'chalarida Mudofaa vazirligi qo'shnlari harbiy bo'lmalarining piyoda yurishlari tashkil etildi.

Bunda poytaxtimiz ahli va mehmonlari Faxriy qorovul jamoasi va qo'l jangi ustalarining ko'rgazmali chiqishlari, bo'linmalarning jangovar chaqirig'i, harbiy orkestrning defile namoyishlaridan bahramand bo'ldi.

FAXR VA IFTIXOR RAMZI



@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririysi bilan bog'lanish uchun telegram bot



SHU SONNING ELEKTRON SHAKLI



MUASSIS

O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI
www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:
general-major Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
polkovnik Alisher Boboxonov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'yozmalar taqzir qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.
Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahilafalandi.

Bosh muharrir:
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 71 260-36-50
buxgalteriya: 71 260-35-20
yuridik bo'lim: 71 260-29-41
faks: 71 260-32-29

Navbatchi: podpolkovnik Gulnora Xodjamuratova
Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo'ziyeva
Musahhih: Mastura Qurbonova

Buyurtma: V-5745
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 34 209 nusxa
Bosishga topshirish vaqt: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyundan chiqa boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz:
100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.



t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi



www.mv-vatanparvar.uz
www.mudofaa.uz



mudofaavazirligi



mudofaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya